

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

IJTIMOIIY-IQTISODIY FAKULTETI

**MILLIY G'OYA, MA'NAVIYAT ASOSLARI VA HUQUQ
TA'LIMI KAFEDRASI**

SULTONMURODOV SARDOR DONIYOR O'G'LI

5111600 - MILLIY G'OYA, MA'NAVIYAT ASOSLARI VA HUQUQ TA'LIMI
KUNDUZGI TA'LIM YO'NALISHI BO'YICHA BAKALAVR DARAJASINI
OLISH UCHUN

**«AXBOROT SOHASIDA MILLIY XAVFSIZLIK MASALALARI»
MAVZUSIDA YOZGAN**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi
kafedrasi o'qituchisi **N. Djanibekova**

GULISTON – 2020

MUNDARIJA

KIRISH.

I bob. AXBOROT XAFSIZLIGI VA BUGUNGI KUNDA AXBOROT XAFSIZLIGINING DOLZARB AHAMIYAT KASB ETISHI.

- 1.1.** Axborot xafsizligi, axborot xafsizligiga tahdid va uning turlari.
- 1.2.** Bugungi kunda axborot xavfsizligining dolzarb ahamiyat kasb etishi.
- 1.3.** Axborot xavfsizligi: milliy qonunchilik va xalqaro standartlar.

II bob. AXBOROT SOHASIDA MILLIY XAVFSIZLIK MASALALARI.

- 2.1.** Axborot xafsizligi siyosati va axborotni muhofaza qilishning davlat tizimi.
- 2.2.** Axborotni muhofaza qilish sohasida litsenziyalash va sertifikatsiyalash.
- 2.3.** Axborot xavfsizligi sohasida milliy xavfsizlikni ta`minlashda milliy g`oyaning ustivorligi.

XULOSA.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

ILOVALAR.

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. XXI asr kishilik jamiyatining taraqqiyoti inson faoliyatining turli jabhalarida bevosita axborot ishlab chiqarish, uni iste'mol qilish va jamlash sur'atlarining o'sishi bilan bevosita bog'liq. Sababi, axborot kishilik jamiyatining muhim resurslaridan hisoblanadi. Ijtimoiy taraqqiyotda axborot strategik muhim ahamiyatga ega bo'lgan hom-ashyo va energiya bilan tenglashtirilmoqda. Ma'lumki, dunyo miqyosida milliy mahsulotning 70% i axborot tizimlarida saqlanayotgan axborot ko'lami bilan bog'liqdir. Keyingi o'n yil ichida biz axborot texnologiyalarining shiddat bilan rivojlanib, hayotning barcha jabhalariga, ayniqsa, ishlab chiqarishning turli sohalariga joriy etilishining guvohi bo'ldik. Rivojlangan davlatlarda ko'pchilik faoliyat ko'rsatayotgan xodimlar ishlab chiqarish sohasida emas, balki u yoki bu darajada axborotni qayta ishlash bilan banddirlar. Bugungi kunda har bir xodim, mutaxassis, talaba o'z faoliyatini axborot texnologiyalarisiz tasavvur qila olmaydi. Ular o'zlarining qimmatli vaqtlarini kompyuter oldida o'tkazib, mashaqqatli mehnat evaziga yaratilgan bebaho axborotlarini saqlashni «aqli mashinalarga» ishonib, ularning yo'q qilinishi, buzilishi yoki o'g'irlanishi haqida o'ylamay, tavakkalchilikka yo'l qo'yadilar. Bunday qimmatli axborotlarni saqlash, ularning xavfsizligini ta'minlash uchun qoidalar, tamoyillar, vositalar, usullarni bilish va ustalik bilan joriy etish zarur bo'ladi. Nafaqat qimmatli axborotlar xavfsizligini ta'minlash, balki axborot tizimlari va ularning infrastrukturasi xavfsizligini ta'minlash ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Insonning butun hayoti axborotni qabul qilish, saqlash va qayta ishlash bilan bog'langan. Umuman olganda, inson bilimi ham to'plangan va tartiblangan axborotdir. Ammo inson miyasi nechog'li mukammal bo'lmasin, juda katta miqdordagi axborotning hammasini xotirasida saqlay olmaydi va avloddan-avlodga hech bir o'zgarishsiz uzatib bermaydi. Shu tariqa axborotlarni saqlab, eslab turadigan texnik vositalarga zaruriyat tug'ildi. Bundan tashqari, axborot har bir millatning boyligi hisoblanadi, shu sababli uni shunday saqlash lozimki, undan kerakli vaqtda kerakli hajmda foydalanish mumkin bo'lsin. Shundagina uning bahosi beqiyos bo'ladi. Aynan shuning uchun kompyuterlar bugungi kun talabiga javob beradigan texnik vositalari va qurilmalaridan samarali foydalanishga harakat qiladi. Demak, kompyuterlar texnologiyalarining tanlab olingan texnik vositalar kompleksi yordamida axborotlarni saqlash, uzatish va qayta ishlash jarayonlarini qamrab oladi. Malakali bo'lgan har bir xodim - huquqshunos, muxandis, iqtisodchi, jurnalist va boshqa - hozirgi kunga kelib ma'lumotlar to'plamini qiyinchilik bilan boshqara olyapti. Shuning bilan birgalikda informatikada axborot texnologiyalar, ya'ni inson mehnatini qisman yoki to'la engillashtirishga qaratilgan texnologiyalar ko'plab yaratilmoqda. Prezidentimiz va hukumatimizning diqqat markazidagi masalalar qatoriga ta'lim jarayonini axborotlashtirish masalasi ham

kirib, ushbu masalani hal etish bo'yicha qator qonunlar va qarorlar qabul qilindi. Bu qonun va qarorlarning asosini o'quv jarayoniga yangi axborot-kommunikatsiya va pedagogik texnologiyalarni, elektron darsliklar hamda multimediya vositalarini keng joriy etish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yaxshi biladigan va o'z kasbiy faoliyatida ulardan samarali foydalanadigan yuqori malakali, axboriy madaniyatga ega mutaxassislarni tayyorlash tashkil etadi. Hech kimga sir emas, bugungi bozor iqtisodiyotiga o'tilayotgan dorilomon zamonda jamiyatimiz taraqqiyoti xalq xo'jaligining har sohasiga yangidan-yangi texnologiyalarni, jumladan yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini jalb qilishni ta'qoza etmoqda. Oxirgi paytda kompyuter tizimlarining turli sohalarda va keng ko'lamda ishlatilishi hamda axborotlashtirishning jadal tarakkiy etishi axborot xavfsizligi muammosini keltirib chiqarmoqda. Xavfsizlik muammosi har qanday tizim uchun uning murakkabligi, tabiatidan qat'i nazar birlamchi vazifa hisoblanadi. Tez rivojlanib borayotgan kompyuter axborot texnologiyalari bizning kundalik xayotimizning barcha jabxalarida sezilarli o'zgarishlarni olib kirmoqda. Shu bilan birga axborotning baxosi ko'p xollarda uning o'zi joylashgan kompyuter tizimining baxosida bir necha yuz va ming barobarga oshib ketmokda. Shuning uchun tamomila tabiiy xolda axborotni unga ruxsat etilmagan xolda kirishdan, qasddan uzgartirishdan, uni ug'irlashdan, yo'qotishdan va boshqa jinoiy xarakterlardan ximoya qilishga kuchli zarurat tug'iladi. Bugungi kunda axborot xavfsizligi jamiyatdagi bosh muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Bunga sabab, keng ko'lamda axborotlarni jamlash, saqlash, qayta ishlash va uzatishning turli xil vositalari va usullaridan foydalanishdir. Axborotni muhofaza qilishning davlat tizimi axborotni himoyalovchi texnikani qo'llaydigan idoralar va ijro etuvchilar hamda himoya obyektlari majmuini ifodalaydi. Bu tizim axborotni muhofaza qilish sohasidagi huquqiy, tashkiliy boshqaruv va me'yoriy hujjatlarga muvofiq tashkil etiladi va faoliyat yuritadi. Shu bilan birga mamlakat milliy xavfsizligini ta'minlash tizimining tarkibiy qismi hisoblanadi va davlat xavfsizligini axborot sohasidagi ichki va tashqi tahdidlardan himoyalashga yo'naltirilgan.

Shuni unutmaslik kerakki, bugungi kunda inson ma'naviyatiga qarshi yo'naltirilgan, bir qarashda arziyas bo'lib tuyuladigan kichkina xabar ham axborot olamidagi globallashuv shiddatidan kuch olib, ko'zga ko'rinmaydigan, lekin zararini hech narsa bilan qoplab bo'lmaydigan ulkan ziyon yetkazishi mumkin. Birgina so'ngi o'n besh yillik ichida O'zbekistonimizning Mustaqil taraqqiyotini ko'ra olmayotgan vahhobiylar, diniy ekstremistik guruhlar beqarorlik urug'ini sepish, xalqimizni o'zi tanlagan yo'ldan ozdirish, chalg'itish uchun ne-ne kuchlarni ishga solmadilar, har qanday qabih vositalardan foydalandilar. Shunday Ushbu yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan

ko'rinib turibdiki, mazkur "Axborot sohasida milliy xavfsizlig masalalari" mavzusida bitiruv malakaviy ish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Shunday ekan tanlangan mavzuning dolzarbligi quyidagi omillar bilan belgilanadi:

- Mafkuraviy tahdid jamiyat taraqqiyoti uchun jiddiy xavf ekanligini ochib berish;

- Globallashuv jarayonlari va ma'naviy tahdidlarning namoyon bo'lish xususiyatlarini yoritish;

- Mafkuraviy tahdidlarni oldini olishda ommaviy axborot vositalarining ahamiyatini tahlil qilish;

- Ma'naviy tahdid – o'zligimiz va kelajagimizga tahdid ekanligini yoritish;

- Ma'naviy tahdidlarga qarshi immunitetni shakllantirish omillarini tahlil qilish;

- Fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish zaruriyati yoshlarga tushuntirish;

- Jamiyatimizdagi turli ma'naviy tahdidlarga qarshi kurashish immunitetini shakllantirishdan iborat.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning har chiqishida, asarida ma'naviy tahdidlar, unga qarshi kurashish zaruriyati, bu boradagi vazifalar keng tahlil qilingan. Ushbu O'zbekiston mustaqilligiga havf solayotgan ma'naviy tahdidlar M.Quronovning "Milliy tarbiya", S.Otamurtovning "Globallashuv va milliy-ma'naviy havfsizlik"¹, M.Lafasovning "Diniy ekstremizm: tarixi va mohiyati", X.Jumaniyozov, M.Sobirovlarning "Globallashuv asoslari" asarlarida keng yoritilgan².

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi. O'zbekistonning barqarorligi va havfsizligiga raxna soluvchi tahdidlar, ularning turlari, zararli axborot oqimlari va unga qarshi o'quvchi yoshlar misolida mafkuraviy immunitetni shakllantirish va xavfsiz milliy axborot tizimini shakllantirish yo'llarini tahlil qilish.

Bitiruv malakaviy ishning vazifalari:

- ✓ Axborot xafsizligi, axborot xafsizligiga tahdid va uning turlari haqida tushunchalar berish;
- ✓ Bugungi kunda axborot xavfsizligining dolzarb ahamiyat kasb etishi davr talabi ekanligini yoritish;

¹ Отумаротов С. Globallashuv va milliy-ma'naviy havfsizlik. Т.2013

² Жуманиёзов Х, Собирова М. Нигманова У. Глобаллашув асослари. Т.2015

- ✓ Axborot xavfsizligi: milliy qonunchilik va xalqaro standartlar tizimini izohlash;
- ✓ Globallashuv va uning yoshlar ma'naviyatiga salbiy ta'sirini yoritish;
- ✓ Mafkuraviy tahdidlar tushunchasi, namoyon bo'lish xususiyatlarini taxlil qilish;
- ✓ Yoshlar ma'naviyatiga yot ichki tahdidlarva ularga qarshi kurashish chora-tadbirlari;
- ✓ Islom ekstremizmi va aqidaparastligining jahon tinchligi, barqarorlik va taraqqiyotiga salbiy ta'siri ko'rsatish;
- ✓ O'zbekiston mustaqilligiga raxna solayotgan mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashda ta'lim tizimi oldidagi vazifalarni ko'rsatib berishdan ibora;
- ✓ O'zbekiston Respublikasidagi axborot siyosati va axborotlarni himoya qilish milliy tizimi qandayligini ko'rsatib berish.

Ishning ob'ekti. Axborot sohasidagi milliy xafsizlik masalalari, bugungi kunda jamiyat ma'naviyatiga havf solayotgan illatlar, axborot sohasidagi davlat siyosati kabi masalalarni yoritib berish.

Bitiruv malakaviy ishning predmeti. O'zbekistonning barqarorligi va havfsizligiga raxna soluvchi tahdidlar va unga qarshi o'quvchi-yoshlar misolida mafkuraviy immunitetni shakllantirish borasidagi vazifalar, olib borilayotgan ma'rifiy siyosatning yo'nalishlari bilan bog'liq ko'rsatmalar bitiruv malakaviy ishning predmetini tashkil etadi.

Tadqiqotdagi ilmiy yangiliklar va erishilgan natijalar. BMI da hozirgi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblangan kompyuter axborot tizimlari, axborot xavfsizligi, davlatimizning axborot sohasidagi xavfsizlik masalalari to'laqonli yoritib berildi. Ishning kirish qismida mavzuning dolzarbligi, ishning maqad va vazifalari, ishning ilmiy va amaliy ahamiyati, adabiyotlar tahlili ko'rsatib o'tilgan. I bob "Axborot xavfsizligi va bugungi kunda axborot xafsizligining dolzarb ahamiyat kasb" deb nomlandi va bu yerda axborotning ahamiyati, uning jamiyatda va kundalik hayotimizda tutgan o'rni, axborot xavfsizligi, axborot xafsizligiga tahdid va uning turlari, bugungi kunda axborot xavfsizligining dolzarb ahamiyat kasb etishi, axborot xavfsizligi bo'yicha milliy qonunchilik va xalqaro standartlar kabi masalalar yoritilgan. II bob "Axborot sohasida milliy xavfsizlik masalalari" deb nomlanib, axborot xafsizligi siyosati, axborotni muhofaza qilishning davlat tizimi, Axborot xavfsizligi sohasida milliy xavfsizlikni ta'minlashda milliy g'oyaning ustivorligi, O'zbekistonning barqarorligi va xavfsizligiga raxna soluvchi tahdidlar va ularning namoyon bo'lish xususiyatlari kabi masalalar yoritilgan.

Tadqiqotning nazariy va metodologik asoslari. Tadqiqotning nazariy asosi bo'lib O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning asarlarida

mustaqillik davrida ilm-fanning ravnaqi haqida yoritilgan g'oyalari³, ilgari surilgan konseptual vazifalari xizmat qiladi. Shuningdek mazkur soha bilan shug'ullagan mamlakatimizdagi yetakchi olimlarning asarlari, monografiyalari ham tadqiqot uchun muhim nazariy, metodologik asos bo'lib xizmat qildi.

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot ishi materiallaridan xavfsizlik masalalar, axborot hurujlari, O'zbekistonning barqarorligi va havfsizligiga raxna soluvchi tahdidlar va unga qarshi o'quvchi-yoshlar misolida mafkuraviy immunitetni shakllantirish borasida tadqiqot olib borishda, shuningdek ushbu mavzu yuzasidan akademik litsey va kasb-hunar kollejlarda tegishli mavzularni yoritishda keng foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi. Bitiruv-malakaviy ish kirish, 2 ta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatlaridan iborat.

³ Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bO'sag'asida: xavfsizlikka, tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.6. - T.: «O'zbekiston», 1997; Karimov I.A. Jamiyat mafkurasi xalqni -xalq, millatni - millat qilishga xizmat etsin. T.7.- T.: «O'zbekiston», 1999; Karimov I.A. O'zbekiston respublikasi Oliy Majlisining XI sessiyasida so'zlagan nutqi. Xalq so'zi. 1998 yil 5 may; Karimov I.A. Milliy istiqloq mafkurasi - xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. T.8. -T.: «O'zbekiston», 2000; Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. - T.: «O'zbekiston», 2000; Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot - pirovard maqsadimiz. T.8. - T.: «O'zbekiston», 2000; Karimov I.A. Egali yurt erkini bermas. T.9. - T.: «O'zbekiston», 2001; Karimov I.A. «Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» risolasiga sO'z boshi. T.9. - T.: «O'zbekiston», 2001. Karimov I.A. Yuksak m a'naviyat - yengilmas kuch. Toshkent, Ma'naviyat, 2008 va boshqalar.

I bob. AXBOROT XAFSIZLIGI VA AXBOROTNI MUHOFAZA QILISH.

1.1. Axborot xafsizligi, axborot xafsizligiga tahdid va uning turlari.

Har kuni biz to'qnashadigan hayotimizning jihati: eshikni qulflaymiz, qimmatbaho narsalarni begona ko'zlardan berkitamiz va hamyonni duch kelgan joyda qoldirmaymiz. Bu "raqamli dunyoga" ham rasm bo'lishi shart, chunki har bir foydalanuvchining kompyuteri qaroqchi hujumi ob'ekti bo'lishi mumkin. Kommertsiya tashkilotlari xavfsizlikni ta'minlash o'zining birinchi galdagi vazifasi emas, balki uni ta'minlashga sarf etiladigan harajatlarni muqarrar balo deb hisoblab kelganlar. Qandaydir darajada bu "oqilona ish": nihoyat, usiz ham ish bajarishda to'siqlar to'lib toshib yotibdiku?! Ammo firmaning barcha korporativ binolariga kecha-kunduz kirishga ruxsat berishga jur'at etuvchi aqli joyida "sanoat kapitanlari"ni ko'rganmisiz? Albatta, yo'q! Hatto kichkina kompaniya binosining kirish yo'lida sizni qorovul, yoki kirishni chegaralovchi va nazoratlovchi tizimi qarshi oladi. Axborotni himoyalash esa hali ko'ngildagidek emas. Axborotni qanday yo'qotish mumkinligini va bu qanday oqibatlarga olib kelishini barcha ham tushunavermaydi. Yirik o'yinchilar yaxshigina saboq oldilar: Xakerlar Yahoo.com, Amazon.com kabi kompaniyalarga va hatto kosmik tadqiqot agentligi NASAga katta zarar yetkazdilar. Xavfsizlik xizmati bozorining eng yirik nomoyondalaridan biri RSA Security, har qanday taxdidga qarshi chora borligi xususidagi o'ylamasdan qilgan bayonotidan bir necha kundan keyin, xujumga duchor bo'ldi. Odatda odamlardan yoki predmetlardan chiqadigan va zarar etkazadigan taxdidlar quyidagi sinflarga bo'linadi: ichki yoki tashtsi va tuzilmalangan (ma'lum ob'ektga qarshi) yoki tuzilmalanmagan ("kimga Xudo beradi" qabilida adreslanuvchi). Masalan, kompyuter viruslari "tashki tuzilmalanmagan taxdidlar" sifatida turkumlanadi va tamomila oddiy hisoblanadi. Qizig'i shundaki, foydalanuvchilar o'zining kompyuterini muayyan nishon deb hisoblamaydilar, ular o'zlarini yaxshigina himoyalangandek sezadilar. Kerakli himoya darajasi aksariyat hollarda ishingizning holatiga bog'liq. Agar tashkilotingiz yoki kompaniyangiz qandaydir tazyiq nishoni bo'lsa, agar siz milliy energetik resurslarni taqsimlovchi yoki milliy aloqa tarmoqlariga xizmat kiluvchi davlat in-fratuzilmasi tarkibida bo'lsangiz, oddiy terroristlar bombalarini va pistoletlarini chetga qo'yib, turli-tuman dasturiy vositalar yordamida tashkilotingizga elektron xujumni amalga oshirish masalasini ko'radilar. Ikkinchi tomondan, savdo-sotiq va marketing bo'yicha oddiy tashkilot xususida so'z borsa, faqat mijozlar ruyxsatini o'grilovchi xizmatchilaringiz to'grisida, qalbaki kredit kartochkalari bo'yicha tovar oluvchi firibgarlar, tarmog'ingizga preyskurantlardan foydalanish maqsadida kiruvchi raqiblar, Web-saytingizni ta'magirlik maqsadida buzuvchilar va shunga o'xshashlar to'grisida qayg'urishingizga to'g'ri keladi. Ammo, vahimaga o'rin yo'q. Birinchi navbatda kundalik ehtiyoj choralari ko'rilishi lozim. Ma'lumotlarni

o'g'irlatish yoki yo'qotish katta, ba'zida, tuzatib bo'lmaydigan zarar keltiradi. Ma'lumki, tizim ma'murlari barcha mahfiy materiallardan foydalanish imkoniga ega va, odatda, kompaniya foydasidan o'z ulushlariga ega emaslar. Shu sababli xuddi ular tashkilot xavfsizligiga taxdid sola oluvchilar ichida eng kattasi hisoblanadilar. Ta'kidlash lozimki, kompaniya ishga kiruvchilarni sinchiklab tekshiradi. Xuddi shunday, xavfsizlik xizmatini ta'minlovchilarga, ayniqsa maslaxat berish, rejalashtirish va mu'murlashni tavsiya etuvchilarga diqqat bilan qarash lozim. Sivilizatsiya rivojining zamonaviy bosqichida axborot nafaqat jamoat va davlat institutlari faoliyatida, balki har bir inson hayotida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ko'z oldimizda jamiyatning axborotlashishi shiddat bilan va ko'pincha oldindan bilib bo'lmaydigan tarzda rivojlanmoqda. Biz esa uning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va boshqa oqibatlarini tushunib yetishga boshlaymiz, xolos. Jamiyatimizning axborotlashishi yagona dunyo axborot makonining yaratilishiga olib keladiki, bu makon doirasida axborotni yig'ish, ishlash, saqlash va sub'ektlar - insonlar, tashkilotlar, davlatlar o'rtasida almashish amalga oshiriladi.

Ravshanki, siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va boshqa axborotlarni tezlikda almashish imkoniyati jamiyat hayotining barcha sohalarida va ayniqsa ishlab chiqarishda va boshqarishda yangi texnologiyalarning qo'llanilishi so'zsiz foydalidir. Ammo, sanoatning tezlikda rivojlanishi Yer ekologiyasiga taxdid sola boshladi, yadro fizikasi sohasidagi yutuqlar yadro urushi xavfini tug'dirdi. Axborotlashtirish ham jiddiy muammolar manbaiga aylanishi mumkin. Urushlar doimo bo'lgan. Vaqt o'tishi bilan urushni olib borish butun bir fanga aylandi. Har qanday fandagidek urushda o'zining tarixi, o'zining qoidasi, mashhur namoyondalari, o'zining metodologiyasi paydo bo'ldi. Zamonaviy urush g'oyasi juda ildamlab ketdi. Endi uning makoni - butun yer shari. Urush lokal qaroqchi xujumidan bir necha davlatlarni vayron qiluvchi global muammoga aylandi.

Turli mamlakatlarning harbiy doktrinalarida elektron qurol rivoji rejaları va maxsus vazifalarga mo'ljallangan dasturiy ta'minot to'grisida eslatishlar ko'zga tashlanmoqda. Turli razvedka manbalaridan kelayotgan axborotning taxlili natijasida xulosa qilish mumkinki, ba'zi bir davlatlarning rahbarlari xujumkor kiber dasturlarni yaratishni moliyalamokdalar. Axborot urushiga oddiy vositalar yordamida harbiy harakatlar samara bermaydigan hollarga nisbatan strategik alternativa sifatida qaralmoqda. Harbiylar tomonidan kiritilgan axborot urushi atamasi real, jarangli va yemiruvchi harbiy harakatlar bilan bog'liq shafqatsiz va xavfli faoliyatni anglatadi. Bu urushning alohida kdrarlari-shtab urushi, elektron urushi, psixologik amallar va h. Har qanday urush, axborot urushi shu jumladan, zamonaviy qurol yor-damida olib boriladi. Axborot quroli yordamida, urush olib boriluvchi barcha qurollardan farqli o'laroq, e'lon qilinmagan va ko'pincha dunyoga ko'rinmaydigan urushlarni olib borish mumkin

(olib borilmoqda ham). Bu qurolning ta'sir ob'ektlari - iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va h. kabi jamiyat va davlat institutlari, ma'lumotlarni uzatish tarmoqlarining kelajak janglar maydoniga aylanishi allaqachon e'tirof etilgan. Axborot quroli xujumda va mudofaada "elektron tezlik" bilan ishlatilishi mumkin. U eng ilg'or texnologiyalarga asoslangan bo'lib, harbiy nizolarni dastlabki bosqichida hal etilishini ta'minlaydi hamda umummaqsad kuchlarning qo'llanilishini istisno qiladi. Axborot quroli qo'llanilishining strategiyasi xujumkor xarakterga ega. Ammo xususiy zaiflik nuqtai nazari mavjud, ayniqsa fuqorolik sektorida. Shu sababli bunday quroldan va axborot terrorizmidan himoyalaniish muammosi hozirda birinchi o'ringa chiqqan. Foydalanuvchilariga dunyo tarmoqlarida ishlashni ta'minlovchi mamlakatlarning milliy axborot resurslarining zaifligi har ikki tomonga xavfli narsa. Axborot quroli deganda axborot massivlarini yo'qotish, buzish yoki o'g'irlash vositalari, himoyalash tizimini yo'qotish, qonuniy foydalanuvchilar faoliyatini chegaralash asbob-uskunalar va butun kompyuter tizimi ishlashi tartibini buzish vositalari tushuniladi. Hozirda xujumkor axborot quroli sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- kompyuter viruslari - ko'payish, dasturlarda o'rnashish, aloqa liniyalari, ma'lumotlarni uzatish tarmoqlari bo'yicha uzatilish, boshqarish tizimlarni ishdan chiqarish va shunga o'xshash qobiliyatlarga ega;
- mantiqiy bombalar - signal bo'yicha yoki o'rnatilgan vaqtda harakatga keltirish maqsadida harbiy yoki fuqaro infratuzilmalariga o'rnatiluvchi dasturlangan qurilmalar;
- telekommunikatsiya tarmoqlarida axborot almashinuvini bostirish vositalari, davlat va harbiy boshqaruv kanallarida axborotni soxtalashtirish;
- testli dasturlarni betaraflashtirish vositalari;
- ob'ekt dasturiy ta'minotiga ayg'oqchilar tomonidan atayin kiritiluvchi turli xil xatoliklar.

Universallik, maxfiylik, dasturiy-apparat amalga oshirilishining har xilligi, ta'sirining keskinligi, qo'llanilishining vaqti va joyini tanlash imkoniyati, nihoyat, foydaliligi axborot qurolini haddan tashqari xavfli qiladi. Bu qurolni, masalan, intellektual mulkni himoyalash vositasiga o'xshatib niqoblash mumkin. Undan tashqari, u hatto urush e'lon qilmasdan xujum harakatlarini avtonom tarzda olib borish imkonini beradi. Zamonaviy jamiyatda axborot qurolini ishlatish harbiy strategiyasi fuqaro sektori bilan uzviy bog'langan. Axborot qurolining, uning ta'siri shakli va usullarining paydo bo'lishi va qo'llanishi xususiyatlarining turli-tumanlilikligi undan himoyalaniishning murakkab masalalarini vujudga keltirdi.

Davlatning dunyo ochiq tarmog'iga ulanishining iqtisodiy va ilmiy-texnik siyosatini axborot xavfsizligi orqali ko'rish lozim. Bu ochiq, fuqarolarning axborotga va intellektual mulkga ega bo'lish qonuniy huquqini saqlashga

mo'ljallangan siyosat mamlakat xududida tarmoq asbob-uskunalarini unga axborot quroli elementlarining kirishidan saqlashni ko'zda tutish lozim. Bu muammo hozirda, chet el axborot texnologiyalarini ommaviy sotib olinayotgan paytda o'ta muhimdir. Ma'lumki, dunyo axborot makoniga ulanmasdan mamlakat iqtisodini rivojlantirib bo'lmaydi. Internet tarmog'i tomonidan ta'minlangan axborot va hisoblash resurslaridan operativ foydalanishni davlatchilikni, fuqarolik jamiyati institutlarini mustahkamlash, ijtimoiy infratuzilmalarining rivojlanish shartlari sifatida talqin etish mumkin. Ammo mamlakatning xalqaro telekommunikatsiya tizimida va axborot almashinuvida ishtirokining axborot xavfsizligi muammosini kompleks hal qilmasdan mumkin emasligini aniq tasavvur etish lozim. Ayniqsa xususiy axborot resurslarini himoyalash muammosi axborot va telekommunikatsiya texnologiyalar sohasida rivojlangan mamlakatlardan texnologik orqada qolayotgan mamlakatlar uchun jiddiy hisoblanadi.

Axborot qurolini ishlab chiqishni va uni ishlatishni ximiyaviy va bakteriologik qurol kabi taqiqlash ehtimoldan uzoq. Xuddi shu kabi ko'pgina mamlakatlarning yagona global axborot makonini shakllantirish bo'yicha urinishlarini chegaralab bo'lmaydi. Tizim ma'muri uchun himoyaning maqbul darajasini ta'minlashning yagona usuli-axborotga ega bo'lishi, chunki hozircha axborot xujumiga eng tez reaksiya beradigan inson hisoblanadi. Demak, axborotni himoyalash ma'murlarining o'qitishga va professional o'sishiga sarf-harajat axborot hujumlariga qarshi turuvchi eng samarali vosita hisoblanadi.

Jahon tajribasi shundan dalolat beradiki, ayni paytda global iqtisodiyotda kompyuter va telekommunikatsiya texnologiyalari dasturiy ta'minot mahsulotlarini ishlab chiqarisha va ular asosida keng turdagi interfaol xizmatlar ko'rsatishni o'z ichiga olgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasining roll va ahamiyati tobora ortib bormoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi mamlakatning raqobatdoshlik darajasiga ta'sir ko'rsatishi kata hajmda axborot to'plash va uni umumlashtirish imkonini berishi boshqarishni strategik darajada tashkil etish uchun keng imkoniyatlar ochib berishini unutmashimiz zarur"⁴.

O'zbekiston Respublikasining 2002-yil 12-dekabrda "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida"⁵gi qonunida axborot xavfsizligini ta'minlash sohasidagi davlat siyosat axborot sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan hamda sbaxs. jamiyat va davlatning axborot borasidagi xavfsizligini ta'minlashdan iborat deb belgilangan. "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida"⁵gi qonun qabul qilinishi har kimning axborotni erkin va

⁴ Uzbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2015 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yunonlari va 2016 yilga muljalldanlgan iqtisodiy dasturining eng muhim ustuvor yunonlari baqishlangan Vazirlar Mahkamasining axborotnomasi.-2003.-№ 1.-2-m.

⁵ Uzbekiston Respublikasi Oliy Majlisining axborotnomasi.-2003.-№ 1.-2-m.

moneliksiz olish hamda foydalanish huquqlarini amalga oshirishda, shuningdek. axborotning muhofaza qilmishi, sbaxs. jamiyat va davlaming axborot borasidagi xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etdi»⁶.

Axborot xavfsizligi – ko'p qirrali faoliyat sohasi bo'lib, unga faqat tizimli kompleks yondashuv muvaffaqiyat keltirishi mumkin. Ushbu muammoni hal etish uchun huquqiy, ma'muriy, protsedurali va dasturiy-texnik choralar qo'llaniladi. Davlatning axborot xavfsizligini ta'minlash muammosi milliy xavfsizlikni ta'minlashning asosiy va ajralmas qismi bo'lib, axborotni muhofaza qilish esa davlatning birlamchi masalalariga, davlat siyosati darajasiga aylanmoqda.

XXI asrda shaxs. jamiyat va davlat taraqqiyotida axborot resurslari va texnologiyalarining ro'lni ortishi natijasida O'zbekiston Respublikasida fuqarolik jamiyatmi axborotlashtirilgan jamiyat sifatida qurish masalasini hal etish bilan birga quyidagi omillar milliy xavfsizlkni ta'minlash tizimida axborot xavfsizligining yetakchi o'rin egallashini belgilaydi:

- ❖ milliy manfaatlar, ularga tajovuz va ularni bu tajovuzlardan himoyalash axborot va axborot sohasi orqali ifodalanadi, amalga oshiriladi;
- ❖ inson va uning huquqlari. axborot va axborot tizimlari hamda ulrga egalik qilish - bu nafaqat axborot xavfsizligining asosiy obyektlari. shu bilan birga jami xavfsizlik sohalaridagi xavfsizlik obyektining asosiy elementlaridir.
- ❖ axborot yondashuvidan asosiy ilmiy-amaliy usul sifatida foydalanish orqali milliy xavfzlik masalalarini hal etish mumkin;
- ❖ milliv xavfsizlik muammosi yaqqol ajralib turuvchi axborot tasifiga ega.

Axborot xavfsizligi tizimi davlatning axborot sohasidagi siyosatini mamlakatda milliy xavfsizlikni ta'minlash davlat siyosati bilan chambarchas bog'laydi. Bunda axborot xavfsizligi tizimi davlat siyosatining asosiy tashkil evchilarini yaxlit bir butunlikka birtiradi. Bu esa axborot xavfsizligining roli va uning mamlakat milliy xavfsizligi tizimidagi mavqeni belgilaydi. Axborot sohasidagi O'zbekistonnig milliy manfaatlarini, ularga erishishining strategik yo'nalishlarini va ulami amalga oshirish tizimlarini o'zida aks ettirvchi maqsadlar yaxlitligi davlat axborot siyosatini anglatadi. Shu bilan birga davlat asborot siyosati mamlakatning tashqi va ichki siyosatining asosiy taihkil eravchisi hisoblanadi va jamiyatning barcha jabhalarini qamrab oladi

Axborot xavfisligining zamonaviy konsepsiyasi axborot xavfsizligini ta'minlovchi maqsadlar, vazifalar, tamoyillar va asosiy yo'nalishlar bo'yicha rasmiy nuqtai nazarlar majmuini bildiradi.

Quyida axborot xavfsizligining asosiy tashkil etuvchilari va jihatlari keltirilgan:

⁶ Каримов.И.А. Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чукирлаштириш ва фукаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси.-Т.,2010.

- axborotni muhofaza qilish (shaxsiy ma'lumotlarni, davlat va xizmat sirlarini va boshqa turdagi tarqalishi chegaralangan ma'lumotlarni qo'riqlash ma'nosida);
- kompyuter xavfsizligi yoki ma'lumotlar xavfsizligi - kompyuter tarmoqlarida ma'lumotlarning saqlanishini, foydalanishga ruhsat etilganligini va konfidentsiyaligini ta'minlovchi apparat va dasturiy vositalar to'plami, axborotdan mualliflashtirilmagan foydalanishdan himoya qilish choralarini;
- axborot egalari yoki axborotdan foydalanuvchilarga hamda uni qo'llab quvvatlovchi infratuzilmaga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan tabiiy yoki sun'iy xarakterdagi tasodifiy yoki qasddan ta'sir etishlardan axborot va uni qo'llab quvvatlovchi infratuzilmaning himoyalanganligi;
- fuqarolar, alohida guruhlar va ijtimoiy qatlamlar, umuman olganda aholining yashash faoliyati ta'lim olish va rivojlanishlari uchun zarur bo'lgan sifatli axborotga bo'lgan talablarining himoyalanganligi.

Turli axborot tizimlarida foydalanuvchilar xizmat ko'rsatuvchi personal hisoblanib, axborot manbai va tashuvchilari bo'lishi mumkin. Shuning uchun himoya ob'ekti tushunchasi keng ma'noda talqin etiladi. Himoya ob'ekti deganda nafaqat axborot resurslari, apparat va dasturiy vositalar, xizmat ko'rsatuvchi personal va foydalanuvchilar, balki bino hamda u joylashgan hudud ham tushuniladi.

Axborotni muhofaza qilishning asosiy ob'ektlariga quyidagilar kiradi:

- davlat sirlari bilan bog'liq va konfidentsial ma'lumotlarni o'zida saqlovchi axborot resurslari;
- vositalar va axborot tizimlari (hisoblash texnikasi vositalari, tarmoqlar va tizimlar), dasturiy vositalar (operatsion tizimlar, ma'lumotlar bazalarini boshqarish tizimlari, amaliy dasturiy ta'minot), avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari, aloqa va ma'lumotlarni uzatish tizimlari, ruxsati chegaralangan axborotni qabul qilish, uzatish va qayta ishlash texnik vositalari (ovoz yozish, ovoz kuchaytirish, ovoz eshitish, so'zlashuv va televizion qurilmalar, hujjatlarni tayyorlash, ko'paytirish vositalari hamda boshqa grafik, matn va harfli-raqamli ma'lumotlarni qayta ishlash vositalari), konfidentsial va davlat sirlari toifasiga oid bevosita qayta ishlovchi tizim va vositalar. Bunday tizim va vositalarni ko'pincha axborotlarni qabul qilish, qayta ishlash va saqlash texnik vositalari deb atashadi.

Tizim xavfsizligini ta'minlashning aniq mexanizmlarini tanlash qabul qilingan xavfsizlik siyosatiga muvofiq amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yilning 4-fevral kuni e'lon qilingan "O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish

vazirligini tashkil etish to'g'risida"gi Farmoniga⁷ ko'ra "Axborot xavfsizligini ta'minlash va kommunikatsiya tarmoqlari, dasturiy mahsulotlar, axborot tizimlari va resurslarini himoya qilishning zamonaviy texnologiyalarini tatbiq etish chora-tadbirlarini amalga oshirish, axborot resurslarini himoya qilish bo'yicha texnik infratuzilmani yanada rivojlantirish" ustuvor vazifalardan biri sifatida qayd etilgan. Axborot xavfsizligi deganda tabiiy yoki sun'iy xarakterdagi tasodifiy yoki qasddan qilingan ta'sirlardan axborot va uni qo'llab-quvvatlab turuvchi infratuzilmaning himoyalanganligi tushuniladi. Bunday ta'sirlar axborot munosabatlariga, jumladan, axborot egalariga, axborotdan foydalanuvchilarga va axborotni muhofaza qilishni ta'minlovchi infratuzilmaga jiddiy zarar yetkazishi mumkin. O'zbekiston Respublikasining 2002-yil 12-dekabrda «Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida»gi qonunida⁸ axborot xavfsizligi axborot borasidagi xavfsizlik deb belgilangan va u axborot sohasida shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarining himoyalanganlik holatini anglatadi.

Konfidensiallik, butunlik va ruxsat etilganlik axborot xavfsizligini ta'minlash borasida uchta muhim xususiyat hisoblanadi.

– axborotning konfidensialligi – axborotning holati bo'lib, bunda axborotga ruxsat, faqat tegishli huquqqa ega bo'lgan subyektlargagina beriladi.

– axborotning butunligi – axborotda hech qanday o'zgartirishlar bo'lmagan yoki o'zgartirishlar faqat alohida huquqqa ega bo'lgan subyektlar tomonidan amalga oshiriladigan axborotning holati.

– axborotning ruxsat etilganligi – axborotga ruxsat etilgan subyektlarning, uni amalga oshirishga to'siqlar mavjud bo'lmagan holati.

⁷ Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – 2015. – №5. – 52-м.

⁸ Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси. – 2003. – № 1. – 2-м.

1.2. Bugungi kunda axborot xavfsizligining dolzarb ahamiyat kasb etishi.

Bugungi kunda deyarli barcha davlatlar axborot sohasi tadrijiy rivojlanishi va turli xil tazyiqlar mavjud bo`lgan sharoitlarda uning amal qilishi uchun shart-sharoitlar yaratish bo`yicha faoliyatni kuchaytirdilar. Shuning uchun XXI asrni axborot texnologiyalari asri deb bejiz aytmayaptilar. Kishilar o`rtasida xabar etkazishni ta`minlashga qobil hisoblash texnikasi, axborot aloqa tizimi, internet tizimi, shuningdek boshqa axborot texnologiyalari inson va jamiyat hayoti va faoliyatida axborotning ahamiyatini keskin oshirib yubordi. Hozirgi kunda ijtimoiy-siyosiy rivojlanish o`rtasida mutanosiblik mavjud bo`lgan jamiyatgina har tomonlama uyg`un rivojlanishi mumkin. Shuning uchun har qanday jamiyat o`zining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va boshqa bo`lgan talab hamda ehtiyojini to`liqroq qondirishga intiladi. Yuqorida aytib o`tilganidek, bugunga kelib ilmiy-texnikaviy, ishlab chiqarish, ijtimoiy rivojlanishning miqyosi mazkur sohalarda to`plangan va almashinayotgan axborotlar va ularning almashinish sur`ati va o`zlashtirilish tezligi bilan belgilanadi. Mustaqillik tufayli respublikamiz ijtimoiy - siyosiy, iqtisodiy, ma`naviy va siyosiy hayotida juda katta tub o`zgarishlar ro`y berdi. O`zbekiston o`z mustaqilligini qo`lga kiritib, uni mustahkamlash va shuning asosida yangi huquqiy-demokratik jamiyat qurish yo`liga o`tdi. Istiqlol xalqimizning ma`naviy uyg`onishi uchun to`la imkoniyat yaratdi. Yurtimiz tarixi, qadimiy madaniyatimiz tiklanmoqda va oliy qadriyat nufuziga ega bo`lmoqda. Prezidentimiz ta`kidlaganidek: “Mustaqillik yillarida bosib o`tgan yo`limiz va to`plagan tajribamizni xolisona baholash, qo`lga kiritgan yuksak marralarimizni tahlil etish mamlakatimizni tadrijiy va bosqichma-bosqich rivojlantirish bo`yicha biz tanlagan modelning naqadar to`g`ri ekanini va shu yo`ldan bundan buyon ham og`ishmay qat`iyat bilan borishimiz zarurligini yaqqol ko`rsatmoqda”⁹. O`zbekiston Prezidenti I.A.Karimov o`zining bir qator risola va nutqlarida kishilar dunyoqarashi va jamiyat mafkurasining shakllanishida ijtimoiy fanlarning o`rni beqiyosligini ta`kidlab o`tdi. Jumladan, Prezidentimiz milliy mafkuraning shakllanish jarayonida tarix fanining o`rniga g`oyat yuksak baho berib: «Milliy mafkurani shakllantirishdagi eng katta manba-bu haqqoniy yoritilgan tarixdir»¹⁰, deb ko`rsatdi. Darhaqiqat, o`zbek halqi mustaqillikka tinch yo`l bilan erishgan bo`lsa-da, istiqlol uchun olib borilgan kurashlarning ildizlari uzoq tarixga borib taqaladi. Mustaqillik sharofati bilangina bu kurashlar tarixini xolisona o`rganishga imkoniyat yaratildi va milliy tariximiz, ma`naviy boyliklarimizni sinfiy, partiyaviy to`siqlar bilan xalqdan ajratib qo`yishdek illatga barham berildi. Mustabidchilik

⁹ И.А.Каримов «Еришган марралар билан чегараланмасдан, бошлаган ислохотларимизни янги босқчга кутариш-бугунги кундаги энг долзарб вазифамиздир»-23-жилд.-Т:2015.

¹⁰ . Karimov I.A. Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch. – T., Ma`naviyat, 2008.-115-bet.

davrida hukmron kommunistik mafkura ta'sirida o'tmishimizdagi talaygina tarixiy jarayonlar, ijtimoiy-siyosiy harakatlar kommunistik, ma'muriy-buyruqbozlik tizimi manfaatlariga bo'sundirilgan holda soxtalashtirildi, noto'g'ri talqin etildi. Bugungi kunda ma'naviy qadriyatlarimizni ilm-fan va taraqqiyot yutuqlari bilan boyitib borish, o'zligimizni chuqurroq anglash, milliy g'oya va istiqlol mafkurasi tamoyillarini xalqimizning kalbi va ongiga singdirish, muqaddas dinimiz va tariximizni soxtalashtirish, ulardan siyosiy maqsadlarda foydalanishlarga yo'l qo'ymaslik - ma'naviyat sohasidagi asosiy vazifalarimizdir. Ushbu vazifalar milliy istiqlol g'oyasining ma'naviyat soxasida namoyon bo'lishining asosiy tamoyillarini belgilaydi. Yangi jamiyatni barpo etish jarayonida, eng avvalo, ma'naviy qadriyatlarni tug'ri baxolay olishni, soxta qadriyatlardan yoki tarixan eskirgan, o'zidagi bunyodkorlik va ijobiy salohiyatni sarflab bo'lgan qadriyatlardan xaqiqiy hayotbaxsh qadriyatni ajrata olishni o'rganish lozim. Biror bir qadriyatga baxo berilar ekan, uning mamlakatimiz mustaqil tarakkiyotining siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, e'tiqodiy va axloqiy asoslarini qay darajada mustaxkamlay olishi, xalqimizning umumjaxon ijtimoiy taraqqiyotining faol sub'ektiga aylanishiga xizmat qila olishi bosh mezon bo'lishi kerak. Milliy qadriyatlarga, jumladan madaniy-ma'naviy, ma'rifiy merosga ilmiy asosda tug'ri yondashishning asosiy tamoyillariga xos mezonlar - insonparvarlik, vatanparvarlik, xalqchilik va taraqqiyparvarlikdir. Bu mezonlarning har birida milliylik va umuminsoniylik mujjassamlashgan. Ular mohiyatan umuminsoniy harakterga ega bo'lsada, xar bir tarixiy davrda muayyan xalqlarning extiyojlarini yuzaga chiqaradi va ularni ko'ndirishga xizmat qiladi. Shu bois ularning zamirida mujjassam bo'lgan umuminsoniylik moxiyati, milliy extiyojlarni muayyan milliy shaklda ifodalab va uz mazmunini ularga moslashtirgan xolda yuzaga chiqadi. Mazkur mezonlarga nafaqat milliylik va umuminsoniylik, balki tarixiylik ham xos. Ya'ni ular shaklan va mazmunan qotib kolgan andozalar mos xolda emas, balki davr talablariga, jamiyat oldida turgan yangi vazifalarga mutanosib tarzda boyib, takomillashib boradi. Mazkur tamoyillar milliy g'oyamizning tarkibiy unsurlaridir. Zero, milliy istiqlol goyasi butun jamiyat, butun millat, butun O'zbekistonliklar uchun xizmat qiladi. Milliy qadriyatlarimizni baxolaganda, ularning milliy g'oyaga nechog'lik mos ekanini nazarda tutamiz. Lekin biz baholash jarayonida faqat aloxida bir inson, muayyan ijtimoiy gurux, biror bir etnos, manfaatini emas, balki umuminsoniy jamiyatimiz, barcha O'zbekistonliklar manfaatini nazarda tutamiz. Shu bois, yuqorida zikr etilgan mezon va tamoyildan foydalanib, madaniy-ma'naviy merosimizni va bugun ayrim yot mafkuraviy poligonlar tomonidan targ'ib etilayotgan ba'zi g'oyalarni taxlil etsak, ularda insonning erkin rivojiga, o'z orzu-intilishlariga mos xolda yashashiga, xalqimizning psixologiyasi, maksad-

muddaolari, Vatan manfaatlarini va zamonaviy taraqqiyot talablariga mos kelmaydigan unsurlarni, g'oyalarni yaxshi payqab olamiz.

Ilmiy texnika taraqqiyoti insoniyat va jamiyat moddiy ehtiyojlarini qondirish uchun ulkan imkoniyatlar yaratdi. Yangi yuqori texnologiyalar jamiyat a'zolari turmushini istalgan mahsulot bilan ta'minlashga va xizmat sohasini jadal rivojlantirish uchun shart - sharoit yaratishga imkoniyat beradi. Axborot yaratish va tarqatish sohasida ham ilgari ko'z ko'rib quloq eshitmagan sur'at va ko'lamga erishildi. Kishilar o'rtasida xabar yetkazishni ta'minlashga qobil hisoblash texnikasi, axborot aloqa tizimi, internet tizimi, shuningdek boshqa axborot texnologiyalari inson va jamiyat hayoti va faoliyatida axborotning ahamiyatini keskin oshirib yubordi. Hozirgi kunda ijtimoiy-texnikaviy rivojlanish bilan ijtimoiy-siyosiy rivojlanish o'rtasida mutanosiblik mavjud bo'lgan jamiyatgina har tomonlama uyg'un rivojlanishi mumkin. Shuning uchun har qanday jamiyat o'zining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va boshqa axborotga bo'lgan talab hamda ehtiyojini to'liqroq qondirishga intiladi. Yuqorida aytib o'tilganidek, bugunga kelib ilmiy-texnikaviy, ishlab chiqarish, ijtimoiy rivojlanishning o'lchami mazkur sohalarda to'plangan va almashinayotgan axborotlar, ularning almashinish sur'ati va o'zlashtirilish tezligi bilan belgilanadi. Globallashtirilgan dunyoda axborot xalqlararo va davlatlararo munosabatlarda katta ahamiyat kasb etadi. Ya'ni, u jahon hamjamiyati hayotida ham ijobiy ham salbiy kuch sifatida namoyon bo'lishi mumkin. Shu ma'noda texnikaviy-texnologik sohada katta imkoniyatga ega bo'lgan mamlakatlar qulay sharoitga ega bo'ladilar. Mana shu ustunlik tufayli ular o'z shaxsiy manfaatlariga mos keluvchi qadriyatlarini, nuqtai-nazarlarini, g'oyalarni, fikrlarni ilgari surishlari mumkin va surmoqdalar ham. Shunga ko'ra ko'pgina davlatlarda globallashtirishga qarshi harakatlar yuzaga kelmoqda, bular yagona jahon uyg'unlashgan axborot maydonini tuzishni rad etmoqdalar. Bu o'rinda shuni alohida ta'kidlash joizki, globallashtirishga qarshi harakatning o'zi tobora global harakat tusini olmoqda. Zamonamizning o'ziga xos jihatlaridan biri sifatida har qanday mahalliy hodisa yoki voqea zamonaviy axborot texnologiyalari tufayli global hodisa yoki voqea aylanmoqda. Masalan, 2000 yil 11 sentyabrda Nyu Yorda yuz bergan voqea, Livan tuprog'idagi harbiy harakatlar, Fransiyadagi yoshlarning chiqishlari, u yoki bu mamlakatdagi saylovlar, avia halokat, tabiiy ofat, terrorchilik harakati va boshqa shunga o'xshash voqea va hodisalar buning yorqin dalili bo'ladi. Jahon miqyosida kezib yuruvchi bunday axborotlar muayyan davlat manfaatlariga ta'sir etmay qolmaydi. Bu faqat shu axborot tarqaladigan, alohida olingan bir mamlakatdagi ijtimoiy, siyosiy jarayonlardan darak berishi bilangina emas, balki boshqa mamlakatlarning mazkur xabarlar haqida hech narsa aytilmagan auditoriyasi bularni o'z davlatidagi holatga qiyoslashi bilan ham mazkur mamlakat manfaatlariga ta'sir etadi. Shu sababli davlatlar, hukumatlar

o`rtasida ayrim kelishmovchiliklar vaqti-vaqti bilan yuzaga chiqib turishi mumkin. Bunda kim haq yoki kim nohaq ekanligini aniqlash har doim ham oson bo`lavermaydi. Bular barchasi axborot jarayonlarining globallashuvi bilan bog`liq muammolar dolzarbligini yana bir karra ta`kidlaydi. Ammo mazkur muammolar tufayli axborot ishlab-chiqarish va tarqatish imkoniyatlarining tengsizligi paydo bo`ladi. Bu ob`ektiv vaziyatni shunday deb qabul qilmoq kerak. Mamlakatlar bu boradigi o`z ustunliklarini shaxsiy manfaatlarida foydalanishlari boshqa gap. Mana shunday vaqtda munosatlarda keskinlik yuzaga keladi, u ko`p hollarda axboriy kurashga yoki boshqacha qilib aytganda psixologik urushga aylanib ketadi. Ochiq axborot tizimlarida axboriy-psixologik xavfsizlikni ta`minlash hozirgi kunning dolzarb talabidir. Har bir davlat buning ustida bosh qotirmoqda. Bu jahondagi yangi geosiyosiy taqsimot, yangi mintaqaviy nizolarning yuzaga kelishi, millatchilik, shovinizm, din niqobidagi ekstremizm, ekologik halokatning tahdidi kuchayishi, spid, parranda gripi va boshqa yuqumli kasalliklarning tarqalishi bilan bog`liqdir. Yuqorida qayd etilganlarning barchasi O`zbekiston Respublikasi uchun ham mazkur muammolar muhim ekanligini alohida ta`kid etadi. Buning dolzarbligi davlatimiz uchun milliy mustaqillikni yanada mustahkamlash, iqtisod va bozor munosabatlarini tadrijiy rivojlanishini ta`minlash, ijtimoiy islohotlarni chuqurlashtirishda yaqqol ko`rinadi. Bunda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ni amalga oshirish, milliy an`analarni hayotga qaytarish, murosasozlikni tarbiyalash ham katta ahamiyat kasb etadi. Ma`lumki, mustaqil dunyo qarashga ega ma`lumotli kishilargina turli xil talqindagi tazyiqlarga ruhan barqaror qarshilik ko`rsata oladilar. Bu birinchidan. Ikkinchidan, mana shunday kishilargina tegishli muhit yaratishlari va milliy g`oyalarning darg`alari hisoblanadi. Mana shuning uchun ham mazkur muammolarni o`rganishda

- ✓ axborotning shakli va mohiyati;
- ✓ axborot xavfsizligini ta`minlash;
- ✓ ochiq axborot tizimlarining o`ziga xosligi;
- ✓ shaxs, jamiyat va davlat axboriy- psixologik xavfsizligini ta`minlash manbalari va turlari;
- ✓ axborot sohasidagi milliy xavfsizlikni ta`minlashning ahamiyati va tamoyillari;
- ✓ OAV va axboriy qarama-qarshilik; axboriy-psixologik xavfsizlikni ta`minlashda asosiy yo`nalish va usullar;
- ✓ ochiq axborot tizimlarda shaxsning o`z-o`zini himoya qilishi;
- ✓ jamoatchilik fikri va jamiyat axboriy-psixologik xavfsizligi;
- ✓ O`zbekiston OAV lari va jamiyatning psixologik xavfsizligi kabi mavzularni chuqurroq o`rganish talab etiladi.

Yuqorida sanab o`tilgan mavzularni o`rganishda axborot, axboriy xavfsizlik, milliy manfaatlar, axborot sohasidagi milliy manfaatlarga bo`lgan xavf, manbalari, jamoatchilik fikri, ochiq axborot tizimlari, globallashuv, axboriy qarama-qarshilik, axboriy-psixologik kurash, OAV lari, onglilik, idroklash, aks ettirish manikulyatitsiya qilish, psixologik qo`poruvchilik, ijtimoiy targ`ibot, jamoatchilik ongi, insonni xufiyona boshqarish va boshqalarga alohida e`tibor qaratish joiz. Psixologiya, sotsiologiya, falsafa, OAV nazariyalaridan olingan bu tushuncha va terminlar fanni chuqurroq tushunishga, uning asosiy mazmunini, usullari va yo`sinlarini, ya`ni ochiq axborot tizimlarida foydalanayotgan usullarni idrok etishga, demak, ijobiy g`oyalarni salbiy g`oyalardan farqlay olishga ko`maklashadi. Ma`lumki, har qanday dalil, hodisa yoki voqea turlicha talqin etilishi mumkin, shunga bog`liq tarzda auditoriya tomonidan qabul etilishi ham mumkin. Shuning uchun avval boshidanoq, tushunchaviy apparatni belgilab olish, uni sharhlash lozim, shundan kelib chiqqan holda biror hodisa yoki voqeani biz qanday idrok etishimiz va talqin qilishimizga e`tibor berishimiz darkor.

Ruxsat etilganlik huquqiga axborotni yoki uning resurslarini o`qish uchun, o`zgartirish, nusxa olish, axborotni yo`q qilish huquqlari kiradi. Axborotni muhofaza qilish – bu axborot himoya tizimini yaratish bilan bog`liq jarayon. Axborot himoya tizimi hech qachon yuz foizlik himoyani ta`minlay olmasligini anglash muhimdir. Bu esa axborotni mumkin bo`lgan darajadagi o`zgartirish, o`g`irlash yoki yo`q qilish tavakkalchiligiga asoslangan axborot xavfsizligi haqida fikr yuritishni taqozo etadi. Tarmoq texnologiyalari rivojining boshlang`ich bosqichida viruslar va kompyuter xujumlarining boshqa turlari ta`siridagi zarar kam edi, chunki u davrda dunyo iqtisodining axborot texnologiyalariga bog`liqligi katta emas edi. Hozirda, hujumlar sonining doimo o`shishi hamda biznesning axborotdan foydalanish va almashishning elektron vositalariga bog`liqligi sharoitida mashina vaqtining yo`qolishiga olib keluvchi hatto ozgina hujumdan kelgan zarar juda katta raqamlar orqali hisoblanadi. Misol tariqasida keltirish mumkinki, faqat 2003 yilning birinchi choragida dunyo miqyosidagi yo`qotishlar 2002 yildagi barcha yo`qotishlar yig`indisining 50%ini tashkil etgan, yoki bo`lmasa 2006 yilning o`zida Rossiya Federatsiyasida 14 mingdan ortiq kompyuter jinoyatchiligi holatlari qayd etilgan. Korporativ tarmoqlarda ishlanadigan axborot, ayniqsa, zaif bo`ladi. Hozirda ruxsatsiz foydalanishga yoki axborotni modifikatsiyalashga, yolg`on axborotning muomalaga kirishi imkonining jiddiy oshishiga quyidagilar sabab bo`ladi:

- kompyuterda ishlanadigan, uzatiladigan va saqlanadigan axborot hajmining oshishi;
- ma`lumotlar bazasida muhimlik va mahfiylik darajasi turli bo`lgan axborotlarning to`planishi;

- ma'lumotlar bazasida saqlanayotgan axborotdan va hisoblash tarmoq resurlaridan foydalanuvchilar doirasining kengayishi;
- masofadagi ishchi joylar soninig oshishi;
- foydalanuvchilarni bog'lash uchun Internet global tarmogini va aloqaning turli kanallarini keng ishlatish;
- foydalanuvchilar kompyuterlari o'rtasida axborot almashinuvining avtomatlashtirilishi.

Axborot xavfsizligiga taxdid deganda axborotning buzilishi yoki yo'qotilishi xavfiga olib keluvchi himoyalovchi ob'ektga qarshi qilingan harakatlar tushuniladi. Oldindan shuni aytish mumkinki, so'z barcha axborot xususida emas, balki uning faqat, mulk egasi fikricha, kommertsiya qiymatiga ega bo'lgan qismi xususida ketyapti. Zamonaviy korporativ tarmoqdan va tizimlar duchor bo'ladigan keng tarqalgan taxdidlarni tahlillaymiz. Hisobga olish lozimki, xavfsizlikka tahdid manbalari korporativ axborot tizimining ichida (ichki manba) va uning tashqarisida (tashqi manba) bo'lishi mumkin. Bunday ajratish to'g'ri, chunki bitta taxdid uchun (masalan, o'g'irlash) tashkqi va ichki manbalarga qarshi harakat usullari turlicha bo'ladi. Bo'lishi mumkin bo'lgan taxdidlarni hamda korporativ axborot tizimining zaif joylarini bilish xavfsizlikni ta'minlovchi eng samarali vositalarni tanlash uchun zarur hisoblanadi. Tez-tez bo'ladigan va xavfli (zarar o'lchami nuqtai nazaridan) taxdidlarga foydalanuvchilarning, operatorlarning, ma'murlarning va korporativ axborot tizimlariga xizmat ko'rsatuvchi boshqa shaxslarning atayin qilmagan xatoliklari kiradi. Ba'zida bunday xatoliklar (noto'g'ri kiritilgan ma'lumotlar, dasturdagi xatoliklar sabab bo'lgan tizimning to'xtashi yoki buzilishi) to'g'ridan to'g'ri zararga olib keladi. Ba'zida ular niyati buzuq odamlar foydalanishi mumkin bo'lgan nozik joylarni paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Bunda zarar manbai tashkilotning foydalanuvchisi ham, tarmoq foydalanuvchisi ham bo'lishi mumkin, oxirgisi ayniqsa xavfli. Zarar o'lchami bo'yicha ikkinchi o'rinni o'g'irlashlar va soxtalashti-rishlar egallaydi. Kompyuter jinoyatchiligi statistikasi tahlil etilsa qayg'uli manzaraga ega bo'lamiz. Kompyuter jinoyatchiligi yetkazgan zararni narkotik moddalar va qurollarning noqonuniy aylanishidan olingan foydaga qiyoslash mumkin. Faqat AQSHda "elektron jinoyatchilar" yetkazgan har yilgi zarar qariyb 100 mld. dollarni tashkil etar ekan. Yaqin kelajakda jinoiy faoliyatning bu turi daromadliligi, pul mablag'larining aylanishi va unda ishtirok etuvchi odamlar soni bo'yicha yaqin vaqtlargacha noqonuniy faoliyat orasida daromadligi bilan birinchi o'rinni egallagan noqonuniy biznesning uch turidan o'zib ketish ehtimolligi katta. Bu noqonuniy bizneslar-narkotik moddalar, qurol va kam uchraydigan yovvoyi hayvonlar bilan savdo qilish. Davlat va xususiy kompaniyalar faoliyatining sotsiologik tadqiqi ma'lumotlariga qaraganda XXI asrning birinchi yillarida iqtisodiy sohadagi jinoyatchilik bank va boshqa

tizimlarning axborot-kommunikatsion komplekslariga bo'lishi mumkin bo'lgan g'arazli iqtisodiy harakatlarga qaratilgan bo'ladi. Kredit-moliya sohasidagi kompyuter jinoyatchiligining soni muttasil o'sib bormoqda. Masalan onlayn magazinlarida 25%gacha qalloblik to'lov amallari qayd etilgan. Shunga qaramasdan G'arb davlatlarida elektron tijoratning-yuqori daromadli zamonaviy biznesning faol rivojlanishi ko'zga tashlanmoqda. Ma'lumki, bu soha rivojlanishi bilan parallel ravishda "virtual" qalloblarning ham daromadi oshadi. Qalloblar endi yakka holda harakat qilmaydilar, ular puxtalik bilan tayyorlangan, yaxshi texnik va dasturiy qurollangan jinoiy guruhlar bilan, bank xizmatchilarining o'zlari ishtirokida ishlaydilar. Xavfsizlik sohasidagi mutaxassislarning ko'rsatishicha bunday jinoyatchilarning ulushi 70%ni tashkil etadi. "Virtual" o'g'ri o'zining hamkasbi-oddiy bosqinchiga nisbatan ko'p topadi. Undan tashqari "virtual" jinoyatchilar uyidan chiqmasdan harakat qiladilar. Foydalanishning elektron vositalarini ishlatib qilingan o'g'rilik zararining o'rtacha ko'rsatkichi faqat AQSHda bankni qurolli bosqinchilikdan kelgan zararining o'rtacha statistik zararidan 6-7 marta katta. Bank xizmati va moliya amallari sohasidagi turli xil qalloblik natijasida yo'qotishlar 1989 yili 800 mln. dollardan 1997 yili — 100 mlrd. dollarga yetgan. Bu ko'rsatkichlar o'sayapti, aslida yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan bir tartibga oshishi mumkin. Chunki ko'p yo'qotishlar aniqlanmaydi yoki e'lon qilinmaydi. O'ziga xos "indamaslik siyosati"ni tizim ma'murlarining o'zining tarmog'idan ruxsatsiz foydalanganlik tafsilotini, bu noxush xodisaning takrorlanishidan qo'rqib va o'zining himoya usulini oshkor etmaslik vajida muhokama etishni xoxlamasliklari bilan tushunish mumkin. Kompyuter ishlatiladigan inson faoliyatining boshqa sohalarida ham vaziyat yaxshi emas. Yildan-yilga xuquqni muhofaza qiluvchi organlariga kompyuter jinoyatchiligi xususidagi murojaatlar oshib bormoqda. Barcha mutaxassislar viruslarning tarqalishi bilan bir qatorda tashqi xujumlarning keskin oshganligini e'tirof etmoqdalar. Ko'rinib turibdiki, kompyuter jinoyatchiligi natijasida zarar qat'iy ortmoqda. Ammo kompyuter jinoyatchiligi ko'pincha "virtual" qalloblar tomonidan amalga oshiriladi deyish haqiqatga to'g'ri kelmaydi. Hozircha kompyuter tarmoqlariga suqilib kirish xavfi har biri o'zining usuliga ega bo'lgan xakerlar, krakerlar va kompyuter qaroqchilari tomonidan kelmoqda. Xakerlar, boshqa kompyuter qaroqchilaridan farqli holda, ba'zida, oldindan, maqtanish maqsadida kompyuter egalariga ularning tizimiga kirish niyatlari borligini bildirib qo'yadilar. Muvaffaqiyatlari xususida Internet saytlarida xabar beradilar. Bunda xaker musobaqalashuv niyatida kirgan kompyuterlariga zarar yetkazmaydi.

Krakerlar (cracker) — elektron "o'g'rilar" manfaat maqsadida dasturlarni buzishga ixtisoslashganlar. Buning uchun ular Internet tarmog'i bo'yicha tarqatiluvchi buzishning tayyor dasturlaridan foydalanadilar.

Kompyuter qaroqchilari — raqobat qiluvchi firmalar va xatto ajnabiy maxsus xizmatlari buyurtmasi bo'yicha axborotni o'g'irlovchi firma va kompaniyalarning yuqori malakali mutaxassislari. Undan tashqari ular begona bank schetidan pul mablag'larini o'g'irlash bilan ham shug'ullanadilar. Ba'zi "mutaxassislar" jiddiy guruh tashkil qiladilar, chunki bunday kriminal biznes o'ta daromadlidir. Bu esa tez orada, "virtual" jinoyatning zarari jinoyat biznesining an'anaviy xilidagi zarardan bir tartibga (agar ko'p bo'lmasa) oshishiga sabab bo'ladi. Hozircha bunday tahdidni betaraflashtirishning samarali usullari mavjud emas.

Yuqorida qayd etilganlar himoya turlari orasida asosiylari huquqiy, tashkiliy va texnik himoya hisoblanadi. Bizning mavzuga taluqlisi huquqiy himoyadir. Shuning uchun biz huquqiy himoya haqida ko'rib chiqamiz.

1.3. Axborot xavfsizligi: milliy qonunchilik va xalqaro standartlar.

O'zbekiston Respublikasining asosiy Qonuni 1991 yil 8 dekabrda qabul qilingan Konstitutsiyadir. **Konstitutsiyaning 29-moddasida** quyidagilar keltirilgan: «Har kim fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi huquqiga ega. Har kim o'zi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqiga ega, amaldagi konstitutsiyaviy tuzumga qarshi qaratilgan axborot va qonun bilan belgilangan boshqa cheklashlar bundan mustasnodir. Fikr yuritish va uni ifodalash erkinligi faqat davlat siri va Boshqa sirlarga taalluqli bo'lgan taqdirdagina qonun bilan cheklanishi mumkin.»

O'zbekiston Respublikasida 1997 yil 24 aprelda qabul qilingan N 400-I sonli «**Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida**» gi Qonunning 3-moddasida har bir fuqaroning axborot olish xuquqi kafolatlanishi, har kimning axborotni izlash, olish, tadqiq etish, uzatish va tarqatish xuquqi davlat tomonidan ximoya qilinishi yozilgan.

2003 yil 11 dekabrda O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan №560-II sonli «**Axborotlashtirish to'g'risida**»gi Qonunning 4-moddasida axborotlashtirish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari belgilangan. Axborotlashtirish sohasidagi davlat siyosati axborot resurslari, axborot texnologiyalari va axborot tizimlarini rivojlantirish hamda takomillashtirishning zamonaviy jahon tamoyillarini hisobga olgan holda milliy axborot tizimini yaratishga qaratilgan.

Axborotlashtirish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- ✓ har kimning axborotni erkin olish va tarqatishga doir konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirish, axborot resurslaridan erkin foydalanilishini ta'minlash;
- ✓ davlat organlarining axborot tizimlari, tarmoq va hududiy axborot tizimlari, shuningdek yuridik hamda jismoniy shaxslarning axborot tizimlari asosida O'zbekiston Respublikasining yagona axborot makonini yaratish;
- ✓ xalqaro axborot tarmoqlari va Internet jahon axborot tarmog'idan erkin foydalanish uchun sharoit yaratish;
- ✓ davlat axborot resurslarini shakllantirish, axborot tizimlarini yaratish hamda rivojlantirish, ularning bir-biriga mosligini va o'zaro aloqada ishlashini ta'minlash;
- ✓ axborot texnologiyalarining zamonaviy vositalari ishlab chiqarilishini tashkil etish;
- ✓ axborot resurslari, xizmatlari va axborot texnologiyalari bozorini shakllantirishga ko'maklashish;
- ✓ dasturiy mahsulotlar ishlab chiqarish rivojlantirilishini rag'batlantirish;

- ✓ tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, investitsiyalarni jalb etish uchun qulay sharoit yaratish;
- ✓ kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish, ilmiy tadqiqotlarni rag'batlantirish.

Qonunning 6-moddasida Maxsus vakolatli organ vazifalari belgilab qo'yilgan:

- davlat axborot resurslarini shakllantirish ishlarini tashkil etadi va muvofiqlashtiradi;
- axborotlashtirish va axborot texnologiyalarini rivojlantirish davlat dasturlarini ishlab chiqadi;
- davlat organlarining axborot tizimlari, tarmoq va hududiy axborot tizimlari yaratilishiga ko'maklashadi;
- axborotlashtirish sohasidagi standartlar, normalar va qoidalarni ishlab chiqadi;
- axborot tizimlari va axborot texnologiyalarining texnika vositalari hamda xizmatlarini sertifikatlashtirish ishlarini tashkil etadi;
- yuridik va jismoniy shaxslarning o'z axborot resurslari hamda axborot tizimlari muhofaza etilishini ta'minlash borasidagi faoliyatini muvofiqlashtiradi;
- axborot resurslari, xizmatlari va axborot texnologiyalari bozorini rivojlantirishga ko'maklashadi;
- axborotlashtirish sohasida marketing tadqiqotlari va monitoringni tashkil etadi;
- axborot resurslaridan foydalanuvchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish choralarini amalga oshiradi;
- O'zbekiston Respublikasining mudofaa qobiliyati va xavfsizligi manfaatlarini ko'zlab axborot xavfsizligini hamda axborot tizimlaridan ustuvor foydalanilishini ta'minlaydi;
- qonun hujjatlariga muvofiq Boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

«**Axborotlashtirish to'g'risida**»gi Qonunning «**Axborot resurslari va axborot tizimlarini muhofaza qilish**» nomli 19-moddasida axborot resurslari va tizimlarini muhofaza qilishning asosiy maqsadlari bayon etilgan:

1. shaxs, jamiyat va davlatning axborot xavfsizligini ta'minlash;
2. axborot resurslarining tarqalib ketishi, o'g'irlanishi, yo'qotilishi, buzib talqin etilishi, to'sib qo'yilishi, qalbakilashtirilishi va ulardan boshqacha tarzda ruxsatsiz erkin foydalanilishining oldini olish;

3. axborotni yo'q qilish, to'sib qo'yish, undan nusxa olish, uni buzib talqin etishga doir ruxsatsiz harakatlarning hamda axborot resurslari va axborot tizimlariga boshqa shakldagi aralashishlarning oldini olish;
4. axborot resurslaridagi mavjud davlat sirlari va maxfiy axborotni saqlash.

«**Axborotlashtirish to'g'risida**»gi qonunning «**Axborot resurslari va axborot tizimlari muhofaza qilinishini tashkil etish**» nomli 20-moddasida axborot resurslari va axborot tizimlari muhofaza qilinishini tashkil etish masalalari yoritilgan. Axborot resurslari va axborot tizimlari, agar ular bilan g'ayriqonuniy munosabatda bo'lish natijasida axborot resurslarining yoki axborot tizimlarining mulkdorlariga, egalariга yohud boshqa yuridik hamda jismoniy shaxslarga zarar etkazilishi mumkin bo'lsa, muhofaza qilinishi kerak. Davlat organlari, yuridik va jismoniy shaxslar davlat sirlari hamda maxfiy sirlar to'g'risidagi axborotni o'z ichiga olgan axborot resurslari va axborot tizimlarining muhofaza qilinishini ta'minlashi shart. Axborot resurslari va axborot tizimlari muhofaza qilinishini tashkil etish tartibi ularning mulkdorlari, egalari tomonidan mustaqil belgilanadi. Davlat sirlari hamda maxfiy sirlar to'g'risidagi axborotni o'z ichiga olgan axborot resurslari va axborot tizimlarining muhofaza qilinishini tashkil etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Respublikamizda 1994 yil 6 mayda qabul qilingan «**Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlar va ma'lumotlar bazalarining huquqiy himoyasi to'g'risida**»gi Qonunida EHM uchun yaratilgan dasturlar va ma'lumotlar bazalarining huquqiy himoyasi borasidagi munosabatlar yoritilgan. Ushbu Qonun EHM uchun yaratilgan dasturlar va ma'lumotlar bazalarini mualliflik huquqi ob'ektlari sirasiga kiritadi. Qonunda vazifasi va afzalliklaridan qat'iy nazar, ob'ektiv shaklda ifodalangan, bosib chiqarilgan hamda bosib chiqarilmagan, muallif (hammualliflar) ijodiy faoliyatining natijasi bo'lgan, EHM uchun yaratilgan har qanday dasturlar va ma'lumotlar bazalariga nisbatan mualliflik huquqi tatbiq etilishi belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 29 avgust 1996 yilda qabul qilingan № 257 sonli qaroriga binoan 1997 yil 1 martdan boshlab joriy etilgan O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining «**Xizmat va tijorat siri**» nomli 98-moddasida quyidagilar bayon etilgan: Fuqarolik qonun hujjatlari xizmat yoki tijorat siri bo'lgan axborotni, basharti bu axborot uchinchi shaxslarga noma'lumligi sababli haqiqiy yoki nisbiy tijorat qimmatiga ega bo'lgan, qonun yo'li bilan undan erkin bahramand bo'lish mumkin bo'lmagan hamda axborot egasi uning maxfiyligini saqlashga doir choralar ko'rgan hollarda himoya etadi.

Axborotning maxfiyligini ta'minlash borasida davlat manfaatlari 1993 yil 7 mayda qabul qilingan № 848-XII sonli «**Davlat sirlarini saqlash to'g'risida**»gi Qonunda to'liq o'z aksini topgan Unda O'zbekiston Respublikasining davlat sirlari, deb davlat tomonidan qo'riqlanadigan va maxsus ro'yxatlar bilan chegaralab qo'yiladigan alohida ahamiyatli, mutlaqo maxfiy va maxfiy harbiy, siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va o'zga xil ma'lumotlar hisoblanishi ta'kidlangan. Shuningdek mazkur qonunda «Davlat sirlarini saqlashning huquqiy asosi», «Davlat sirlarining kategoriyalari», «Axborotlarni davlat sirlariga mansub deb topish», «Davlat sirlarini saqlash tizimi», «Axborotlarni maxfiylashtirish muddatlari», «Davlat sirlarini saqlash borasidagi burch, ularni oshkor etganlik yoki qonunga xilof ravishda maxfiylashtirganlik uchun javobgarlik» nomli moddalar alohida yoritilgan.

O'zbekiston Respublikasi «Axborotlashtirish to'g'risida»gi Qonuniga muvofiq ravishda yuridik va jismoniy shaxslarning informatsion-kommunikatsion texnologiyalari va Internet tarmog'idan foydalanishlarida xavfsizlikni ta'minlash, kompyuter xavfsizligi tahdidlarining oldini olish va bartaraf etishni yanada takomillashtirish maqsadida 2005 yil 5 sentyabrdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PP-167-sonli Qaroriga ko'ra kompyuter va axborot texnologiyalarini rivojlantirish va joriy etish markazi huzurida kompyuter bilan bog'liq mojarolariga munosabat bildirish xizmati tashkil etiladi. Ushbu xizmatning asosiy vazifalari:

- respublikada kompyuter va axborot texnologiyalaridan foydalanish sohasidagi qonunbuzarliklarning oldini olish borasidagi sa'y-harakatlarni muvofiqlashtirish;

- kompyuter texnikasi va dasturiy ta'minotlardan foydalanuvchilarni kompyuter xavfsizligi tahdidlar to'g'risida axborotni, shuningdek kompyuter bilan bog'liq mojarolar, kompyuter tizimlarida qo'llaniladigan dasturiy-texnikaviy vositalarning samaradorligiga doir materiallarni to'plash, tahlil qilish va tegishli ma'lumot bazalarida jamg'arib borish;

- kompyuter xavfsizligi borasidagi ilg'or tajribani o'rganish va joriy etish, axborot tizimlariga noqonuniy ravishda kirish hollarining oldini olishni ta'minlash uchun tavsiyalar ishlab chiqish;

- kompyuter sohasidagi jinoyatlar va axborot xavfsizligini huquqiy ta'minlash masalalarida hamkorlik qilish.

Bugungi kunda kompyuter bilan bog'liq mojarolarga munosabat bildirish xizmati tashkil etilgan. Xizmat yuzasidan foydalanuvchilarga yordam berish maqsadida www.cert.uz sayti faoliyat ko'rsatmoqda.

2007 yil 27 sentyabrda Oliy Majlis qonunchilik palatasi tomonidan «Axborotlashtirish va ma'lumotlarni uzatish sohasida qonunga xilof harakatlarni

sodir etganlik uchun javobgarlik kuchaytirilganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni qabul qilindi hamda 2007 yil 30 dekabrda Oliy Majlis Senatining o'n ikkinchi yalpi majlisida ma'qullandi. Ushbu Qonunning 1-moddasiga ko'ra, Jinoyat Kodeksining «Axborotlashtirish qoidalarini buzish» nomli 174-moddasi chiqarib tashlandi va uning o'rniga «Axborot texnologiyasi sohasidagi jinoyatlar» nomli 6 moddadan iborat yangi bob kiritildi. Bu bobda quyidagi moddalar nazarda tutilgan:

- «Axborotlashtirish qoidalarini buzish» nomli 278G' 1-modda;
- «Kompyuter axborotidan qonunga xilof ravishda (ruxsatsiz) foydalanish» nomli 278G' 2-modda;
- «Kompyuter tizimidan qonunga xilof ravishda (ruxsatsiz) foydalanish uchun maxsus vositalarni o'tkazish maqsadida ko'zlab tayyorlash yoxud o'tkazish va tarqatish» nomli 278G' 3-modda;
- «Kompyuter axborotini modifikatsiyalashtirish» nomli 278G' 4-modda;
- «Kompyuter sabotaji» nomli 278G' 5-modda;
- «Zarar keltiruvchi dasturlarni yaratish, ishlatish yoki tarqatish» nomli 278G' 6-modda.

Axborot texnologiyalarining rivojlanishi jarayonida elektron shakldagi ma'lumotlar bo'yicha ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda "Elektron raqamli imzo to'g'risida"gi, "Axborotlashtirish to'g'risida"gi, "Elektron tijorat to'g'risida"gi va "Elektron hujjat aylanishi to'g'risida"gi Qonunlar muhim normativ-huquqiy hujjatlar bo'lib xizmat qilmoqda. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi jarayonida elektron shakldagi ma'lumotlar bo'yicha ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda "Elektron raqamli imzo to'g'risida"gi, "Axborotlashtirish to'g'risida"gi, "Elektron tijorat to'g'risida"gi va "Elektron hujjat aylanishi to'g'risida"gi Qonunlar muhim normativ-huquqiy hujjatlar bo'lib xizmat qilmoqda. Vazirlar Mahkamasining "Elektron raqamli imzodan foydalanishning normativ-huquqiy bazasini takomillashtirish to'g'risida"gi Qarori yuqoridagi qonunlarning bajarilishini ta'minlovchi tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni belgilab berdi.

Vazirlar Mahkamasining "Axborotlashtirish sohasida normativ-huquqiy bazani takomillashtirish to'g'risida"gi Qarori bilan "Davlat axborot resurslarini shakllantirish va Davlat organlarining axborot tizimlarini tashkil etish tartiblari to'g'risida"gi Nizomlar tasdiqlandi. Bugungi kunda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining asosiy faoliyat yo'nalishlari bo'yicha ularga yuklatilgan vazifalarning keng ko'lamda bo'lishini hisobga olib, faoliyatni axborot bilan ta'minlash jarayonini to'g'ri tashkil etish juda muhim hisoblanadi. Zero, bu hol

davlat organlarini fuqarolarning huquq va erkinliklari, jamiyat va davlatning qonuniy manfaatlarini ta'minlash borasidagi holatni tavsiflovchi to'liq va ishonchli axborot bilan ta'minlashga imkon yaratadi. Fuqarolarning huquq va erkinliklari, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishga prokuratura organlarida ham alohida e'tibor berilmoqda. Xususan, bugungi kunda prokuratura organlarining qonunchilik targ'iboti faoliyatida axborot texnologiyalarini keng qo'llash hamda faoliyatga oshkoralik berish borasida O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining tegishli buyrug'iga muvofiq, Bosh prokuraturaning rasmiy sayti ro'yxatdan o'tkazilib, ishga tushirilgan. Bundan tashqari, Bosh prokuratura huzuridagi Departament organlarida yagona axborot-komp'yuter tarmog'i va soliq-valyuta qonunchiligini buzish bilan bog'liq jinoyatlar hamda huquqbuzarliklarga oid ma'lumotlar bazasi yaratilib, mazkur tizim samarali faoliyat ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, jamiyatda axborotlashtirish sohasidagi munosabatlarning kengayishi bilan bir qatorda, mamlakatimizda axborotlashtirish sohasidagi huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan yangi ijtimoiy munosabatlar — axborot xavfsizligini ta'minlash ham dolzarb masalalardan biriga aylandi hamda mamlakatimizda qabul qilingan qonun hujjatlariga axborot xavfsizligini ta'minlash borasidagi xalqaro standartlar talablari kiritib borilmoqda. Shu o'rinda axborot xavfsizligi tushunchasini tahlil qiladigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasining "Axborot erkinligi printsiplari va kafolatlari to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq, axborot xavfsizligi axborot sohasida shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarining himoyalanganligini bildiradi.

Shaxsning axborot borasidagi xavfsizligini ta'minlashning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- shaxsning axborotdan erkin foydalanishi uchun zarur sharoitlar va kafolatlarni yaratish;
- shaxsning shaxsiy hayotiga taalluqli sirlarini saqlash;
- shaxsni axborot vositasida qonunga xilof ravishda ruhiy ta'sir ko'rsatilishidan himoya qilish.

Shaxsning axborot xavfsizligiga daxl qilganlik uchun javobgarlik normalarini qo'llash axborot xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan, mamlakatimizda 2007 yilda "Axborotlashtirish va ma'lumotlar uzatish sohasida qonunga xilof harakatlar sodir etganlik uchun javobgarlik kuchaytirilganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni qabul qilinishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-protsessual hamda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodekslariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritilib, fuqarolar, jamiyat

va davlatning axborot xavf-sizligini buzish bilan bog`liq qilmishlar uchun ma`muriy va jinoiy javobgarlik normalari takomillashtirildi.

Mamlakatimiz qonunchiligida mazkur normalar axborot xavfsizligini ta`minlash bo`yicha ilg`or xalqaro standart-lar talablariga muvofiq keladi. Xususan, Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasining 19-moddasi shaxsning axborotdan erkin foydalanishi uchun zarur sharoitlar va kafolatlarni yaratishni ko`zda tutib, bunga ko`ra har bir shaxs erkin ravishda axborotlarni izlash, olish va tarqatish huquqiga ega. Axborot xavfsizligining keyingi muhim tarkibiy qismi bo`lmish shaxsning shaxsiy hayotiga taalluqli sirlarini saqlash bo`yicha ham Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasida muhim talablar belgilangan. Shu o`rinda aytib o`tish kerakki, shaxsiy hayot daxlsizligi bilan bog`liq qoida dastlab, Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasida huquqiy jihatdan mustahkamlangan bo`lib, xususan, uning 12-moddasida shunday deyiladi: "Hech kimning shaxsiy va oilaviy hayotiga o`zboshimchalik va noqonuniy tarzda aralashish, uning uy-joyi daxlsizligi va yozishmalardagi sirlariga o`zboshimchalik va noqonuniy tarzda tajovuz qilish va uning or-nomusi va sha`niga tajovuz qilish mumkin emas. Har bir inson xuddi shunday aralashuv yoki tajovuzlardan qonun orqali himoya qilinish huquqiga ega". Shaxsning axborot xavfsizligini ta`minlash borasidagi muhim talablar 1966 yilda qabul qilingan Fuqarolik va siyosiy huquqlar to`g`risidagi xalqaro Paktning bir qator normalarida ham o`z aksini topgan. Paktning 19-moddasiga ko`ra, har bir inson o`z fikrini erkin bayon etish huquqiga ega bo`lib, bu huquq davlat chegaralaridan mustaqil holda yozma ravishda yoki matbuot vositasida yoki ifodalashning badiiy shakllari yoki o`z ixtiyoriga ko`ra boshqacha usullarda turli axborot va g`oyalarni qidirish, olish va tarqatish erkinligini qamrab oladi.

II bob. AXBOROT SOHASIDA MILLIY XAVFSIZLIK MASALALARI.

2.1. Axborot xafsizligi siyosati va axborotni muhofaza qilishning davlat tizimi.

Axborotni muhofaza qilishning davlat tizimi axborotni himoyalovchi texnikani qo‘llaydigan idoralar va ijro etuvchilar hamda himoya obyektlari majmuini ifodalaydi. Bu tizim axborotni muhofaza qilish sohasidagi huquqiy, tashkiliy-boshqaruv va me‘yoriy hujjatlarga muvofiq tashkil etiladi va faoliyat yuritadi. Shu bilan birga mamlakat milliy xavfsizligini ta‘minlash tizimining tarkibiy qismi hisoblanadi va davlat xavfsizligini axborot sohasidagi ichki va tashqi tahdidlardan himoyalashga yo‘naltirilgan. Har qanday davlatning axborot resurslari uning iqtisodiy va harbiy salohiyatini belgilovchi omillardan biri hisoblanadi. Ushbu resursdan samarali foydalanish mamlakat xavfsizligi va demokratik axborotlashgan jamiyatning muvaffaqiyatli shakllantirilishini ta‘minlaydi. Mamlakatimizda axborotlashtirish sohasiga oid qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinmoqdaki, ulardan asosiy maqsad axborotlarni tezkorlik bilan qabul qilish, qayta ishlash, uzatish va saqlash texnologiyalaridan jamiyatimizning turli jabhalarida, jumladan, huquqni muhofaza qilish organlarining barcha xizmatyo‘nalishlarida keng miqyosda foydalanishni takomillashtirishga qaratilgan.

Zamonaviy axborot texnologiyalarining taraqqiyoti ko‘pgina mamlakatlarda sanoat shpionaji, kompyuter jinoyatchiligi, konfidensial ma‘lumotlarga ruxsatsiz kirish, o‘zgartirish, yo‘qotish kabi salbiy hodisalar bilan birgalikda kuzatilmoqda. Kompyuter jinoyatchiligi rivojlangan davlatlar iqtisodiyotining haqiqiy kushandasiga aylandi. Masalan, Buyuk Britaniya firma va tashkilotlarining 90 foizi elektron qaroqchilikning ob‘ektiga aylangan yoki uning xavfi ostida turibdi. Gollandiyada turli tashkilotlarning 20 foizi kompyuter jinoyatchiligi qurboniga aylangan. Germaniyada kompyuter yordamida yiliga 4 milliard marka, Fransiyada esa 1 milliard frank o‘g‘irlanadi. Mutaxassislar bu turdagi jinoyatlarning yuqori latentlikka egaligini ta‘kidlashmoqda, ya‘ni 85 foiz holatda kompyuter jinoyatchiligi ochilmay qoladi. Holat yana shu bilan chuqurlashmoqdaki, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning o‘zi ham jinoyatchilarning e‘tiboridagi ob‘ektga aylanib qolmoqda. Shu sababli, o‘zlariga tegishli axborotni himoya qilish huquqni muhofaza qilish organlarining bugungi kundagi dolzarb vazifasi bo‘lib qolyapti. Axborot xavfsizligini ta‘minlash muammosi qonunchilik, tashkiliy va dasturiy-texnik choralar yordamida yechimini topuvchi kompleks xarakterga ega. Shuning uchun axborotni muhofaza qilish har qanday mamlakatda muhim davlat vazifasi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 16 sentyabrdagi "O‘zbekiston Respublikasi aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari davlat qo‘mitasi huzuridagi "Elektron

hukumat" tizimini rivojlantirish markazi va Axborot xavfsizligini ta'minlash markazlarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan yuqorida nomlari keltirilgan markazlar tashkil etildi va faoliyati yo'lga qo'yildi. Axborotni muhofaza qilish axborotni ixtiyoriy ko'rinishda yo'qotishda (o'g'irlash, buzish, qalbakilashtirish) ko'riladigan zararining oldini olishni ta'minlashi lozim. Axborotni muhofaza qilish choralari axborot xavfsizligiga oid amaldagi qonun va me'yoriy hujjatlar asosida va axborotdan foydalanuvchilarning manfaatlariga ko'ra tashkil etilishi zarur. Yuqori darajada axborotni muhofaza qilishni kafolatlash uchun muntazam ravishda murakkab ilmiy-texnik vazifalarni hal etish va himoya vositalarini takomillashtirish talab etiladi.

Bugungi kunda axborot xavfsizligini ta'minlaydigan uchta asosiy tamoyi (ma'lumotlar butunligi, axborotning konfidensialligi va foydalanish huquqlariga ega barcha foydalanuvchilar axborotdan foydalana olishlari) bilan bir qatorda ayrim faoliyat sohalari (huquqni muhofaza qilish organlari, mudofaa va maxsus tuzilmalar, bank va moliya institutlari, axborot tarmoqlari, davlat boshqaruv tizimlari) ularda ko'riladigan masalalarning muhimligi va xarakteriga ko'ra, ularning axborot tizimlari faoliyati ishonchliligiga nisbatan yuqori talablar va xavfsizlik bo'yicha maxsus choralar ko'rilishini talab etadi. Axborotni muhofaza qilishning samaradorligi uning o'z vaqtidaligi, faolligi, uzluksizligi va kompleksligi bilan belgilanadi. Himoya tadbirlarini kompleks tarzda o'tkazish axborot tarqab ketishi mumkin bo'lgan xavfli kanallarni yo'q qilishni ta'minlaydi. Vaholanki, birgina ochiq qolgan axborotning tarqab ketish kanali butun himoya tizimining samaradorligini keskin kamaytirib yuboradi.

Axborot hisoblash tizimlarida axborot xavfsizligini ta'minlash nuqtai nazaridan o'zaro bog'liq bo'lgan uchta tashkil etuvchi (axborot; texnik va dasturiy vositalar; xizmat ko'rsatuvchi personal va foydalanuvchilar)ga e'tibor qaratiladi. Axborotni muhofaza qilish tamoyillarini uch guruhga bo'lish mumkin: huquqiy, tashkiliy hamda texnik razvedkadan himoyalashda va hisoblash texnikasi vositalarida axborotga ishlov berishda axborotni muhofaza qilishdan foydalanish. Axborotni muhofaza qilish tizimlaridan foydalanish amaliyoti shuni ko'rsatmoqdaki, faqatgina kompleks axborotni muhofaza qilish tizimlari samarali bo'lishi mumkin. Axborotlarni muhofaza qilishda foydalaniluvchi asosiy usullar bilan bir qatorda axborotlarni ma'naviy-ma'rifiy himoyalash usuli juda muhim rol o'ynaydi. Aynan inson, u korxonada yoki tashkilot xodimi, maxfiy ma'lumotlardan voqif bo'lib, o'z xotirasida ko'plab ma'lumotlarni jamlaydi va ba'zi hollarda axborot chiqib ketishi manbaiga aylanishi mumkin hamda uning aybi bilan o'zгалar ushbu axborotga noqonuniy ega bo'ladilar. Axborotlarni ma'naviy-ma'rifiy himoyalash usulida xodimni tarbiyalash, u bilan ma'lum sifatlarni, qarashlarni shakllantirishga yo'naltirilgan maxsus ishlarni olib borish

(vatanparvarlik, axborotni muhofaza qilish uning shaxsan o‘zi uchun ham qanday ahamiyat kasb etishini tushuntirish) hamda xodimni axborotni muhofaza qilish qoidalarini va usullariga o‘rgatish, konfidensial axborot tashuvchilar bilan amaliy ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish lozim. Jinoyatlarning oldini olishda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning xodimlari turli ko‘rinish va mazmundagi axborotlarni yaratish, tahrir qilish, yig‘ish, tarmoqda ma’lumotlarni uzatish, qabul qilish va ishonchli muhofaza qilish kabi vazifalarni bajarish uchun talab darajasidagi nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari lozim. Axborotni muhofaza qilishning davlat tizimi Axborotni muhofaza qilishning davlat tizimi axborotni muhofaza qilish sohasida tashkilotlar faoliyatini litsenziyalash tizimini, axborotni muhofaza qilish vositalarini sertifikatlashtirish va axborot xavfsizligi talablari bo‘yicha axborotlashtirish obyektlarini attestatsiyasini, kadrlarni tayyorlash, maxsus aloqa tizimlari, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini tashkillashtirish tizimlarini o‘z ichiga oluvchi murakkab tizimdir.

Axborotni muhofaza qilishning davlat tizimi ish yuritishi quyidagi qonun, me‘yoriy hujjatlar asosida amalga oshiriladi:

- O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi;
- «Davlat sirlarini saqlash to‘g‘risida»gi qonun;
- «Axborotlashtirish to‘g‘risida»gi qonun;
- «Mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlashtirish to‘g‘risida»gi qonun;
- «Faoliyat ayrim turlarini litsenziyalash to‘g‘risida»gi qonun;
- «Standartlashtirish to‘g‘risida»gi qonun;
- «Aloqa to‘g‘risida»gi qonun;
- «Telekommunikatsiyalar to‘g‘risida»gi qonun;
- «Axborot olish kafolatlari va erkinligi to‘g‘risida»gi qonun;
- «Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida»gi qonun;
- «Elektron hujjat aylanishi to‘g‘risida»gi qonun;
- «Elektron raqamli imzo to‘g‘risida»gi qonun;
- «Elektron tijorat to‘g‘risida»gi qonun;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari;
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari;
- Axborotni muhofaza qilish sohasidagi vazirlik, muassasa, agentlik va xo‘jaliklarning boshqa huquqiy aktlari.

O‘zbekiston Respublikasining 2002-yil 12-dekabrda «Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida»gi qonunida¹¹ axborotni muhofaza qilish bo‘yicha quyidagi ta’rif keltirilgan:

¹¹Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси. – 2003. –№ 1. – 2-м.

Axborotni muhofaza etish - axborot borasidagi xavfsizlikka tahdidlarning oldini olish va ularning oqibatlarini bartaraf etish chora-tadbirlari. Saqlash, o'zgartirish, uzatish va ma'lum maqsadlar uchun foydalanish obyekti bo'lgan tevarak olam haqidagi ma'lumotlarni, keng ma'noda axborot deb tushunish mumkin. Bu tushunchaga ko'ra inson, uning hayot tarziga va harakatlariga ta'sir etuvchi doimiy o'zgaruvchi axborot maydoni ta'sirida bo'ladi. Axborot o'z tavsifiga ko'ra siyosiy, harbiy, iqtisodiy, ilmiy-texnik, ishlab chiqarishga yoki tijoratga oid hamda maxfiy, konfidensial yoki maxfiy bo'lmagan bo'lishi mumkin.

Maxfiy axborot – foydalanilishi qonun hujjatlariga muvofiq cheklab qo'yiladigan hujjatlashtirilgan axborot¹². Hujjatlashtirilgan axborot esa identifikatsiya qilish imkonini beruvchi rekvizitlari qo'yilgan holda moddiy jismda qayd etilgan axborotdir.

Konfidensial axborot - deganda mamlakat qonunchiligi bilan foydalanish cheklanadigan hujjatlardagi axborot tushunilib, unga xizmat, kasbiy, tijorat va boshqa turdagi axborotlar kiradi¹³. O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 7-maydagi 848-XII-sonli «Davlat sirlarini saqlash to'g'risida»gi qonunning¹⁴ 1-moddasida davlat sirlari tushunchasi berilgan:

«Davlat tomonidan qo'riqlanadigan va maxsus ro'yxatlar bilan chegaralab qo'yiladigan alohida ahamiyatli, mutlaqo maxfiy va maxfiy harbiy, siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va o'zga xil ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasining *davlat sirlari* hisoblanadi». Mazkur qonunning 3-moddasida davlat sirlarining kategoriyalari keltirilgan:

O'zbekiston Respublikasining davlat sirlari – davlat, harbiy va xizmat sirlarini qamrab oladi. Oshkor etilishi respublika harbiy-iqtisodiy imkoniyatlarining sifat holatiga salbiy ta'sir etishi yoki O'zbekiston Respublikasining mudofaa qobiliyati, davlat xavfsizligi, iqtisodiy va siyosiy manfaatlar uchun boshqa og'ir oqibatlar keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan ma'lumotlar davlat sirini tashkil etadi. Oshkor etilishi O'zbekiston Respublikasining mudofaa qobiliyati, davlat xavfsizligi va Qurolli Kuchlari uchun og'ir oqibatlar keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan harbiy xususiyatga ega ma'lumotlar harbiy sirni tashkil etadi. Oshkor etilishi O'zbekiston Respublikasi manfaatlariga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan fan, texnika, ishlab chiqarish va boshqaruv sohasiga doir ma'lumotlar xizmat sirini tashkil etadi». Axborotlashtirish jarayonining jadallashuvi munosabati bilan jamiyatning barcha sohalarida axborot muhofaza qilish muammosi tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Konfidensial axborotlar va davlat sirlariga taalluqli bo'lgan

¹² Ўзбекистон Республикасининг «Ахборот эркинлиги принциплари ва кафолатлари тўғрисида»ги 2002 йил 12 декабрь қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси. – 2003. – № 1.

¹³ «Ахборот-коммуникация технологиялари изохли луғати (иккинчи нашри) – www/undp.uz, www.ictp.uz.

¹⁴ Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг ахборотномаси. – 1993. – № 5 – 232-м.

maxfiy axborotlar muhofazaga muhtojdir. Umuman olganda axborot muhofaza qilish yoki axborot himoyasi axborot xavfsizligi sohasi mutaxassislari va g'arazgo'y kimsalar orasidagi qarama-qarshilikni ifodalaydi.

G'arazgo'y kimsa – noqonuniy yo'llar bilan axborotning qonuniy foydalanuvchilaridan axborotni oluvchi, o'zgartiruvchi yoki yo'q qiluvchi subyektdir.

Axborot himoyasi zaif tuzilmali vazifa bo'lib, uni quyidagicha tavsiflash mumkin:

- samarali himoyani tuzishga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning ko'pligi;
- aniq dastlabki kirish ma'lumotlarining yo'qligi;
- dastlabki ma'lumotlar to'plami bo'yicha aniq optimal natijalarni olish imkonini beradigan matematik usullarning yo'qligi.

Zaif tuzilmali vazifalarni yechishda tizimli yondashuv asos bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli axborot himoyasi masalasini hal etishda xizmat vazifasi axborot xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan elementlar to'plamidan iborat bo'lgan axborot himoya tizimini hosil qilish lozim bo'ladi. Har qanday tizimga kirish – bu tizim holatini o'zgartiruvchi ta'sirlardir. Axborot himoya tizimi uchun kirish ham ichki, ham tashqi tahdidlar hisoblanadi.

Davlat xavfsizligi sohasida davlat siyosatini amalga oshirishga imkon beruvchi sharoitlarni yaratish, mamlakatni iqtisodiy va ilmiy-texnik taraqqiyotiga ko'maklashish, axborotni muhofaza qilish usul va vositalarini qo'llab, O'zbekiston milliy xavfsizligiga bo'lgan zararni jiddiy kamaytirish bularning barchasi axborotni muhofaza qilishning davlat tizimida ko'zlangan maqsad bo'lib, ularni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalarni bajarish kerak:

- yagona texnik siyosatni o'tkazish, harbiy, iqtisodiy, ilmiy-texnik va boshqa sohalar faoliyatlarida axborotni muhofaza qilish bo'yicha ishlarni muvofiqlash va tashkil etish;
- razvedkaning texnik vositalar yordamida axborotni qo'lga kiritishni jiddiy qiyinlashtirish yoki yo'l qo'ymaslik;
- axborotni muhofaza qilish sohasida munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy hujjatlarni qabul qilish;
- axborotni muhofaza qilish vositalarini yaratish va ularning samaradorligini nazorat qilish kuchlarini tashkil etish;
- davlat idoralari va tashkilotlarida axborotni muhofaza qilish holatini nazorat qilish;
- axborotni muhofaza qilish sohasidagi davlat tizimi holatini tahlil qilish, asosiy muammolarni aniqlash;
- axborotni muhofaza qilishni davlat tizimining muhim yo'nalishlarini aniqlash;

– axborotni muhofaza qilish bo‘yicha ishlarni me‘yoriy-metodik va axboriy ta‘minlash.

Xavfsizlik siyosati – xavfsizlik obyektlari va subyektlarining berilgan ko‘pligining xavfsizligini ta‘minlash protseduralari va mexanizmlarini belgilovchi qoidalar to‘plami¹⁵.

Axborotni muhofaza qilishning maqsadi va konseptual asoslari. Umuman olganda axborotni muhofaza qilishning maqsadini quyidagicha ifodalash mumkin:

– axborotni tarqab ketishi, o‘g‘irlanishi, buzilishi, qalbakilashtirilishini oldini olish;

– shaxs, jamiyat, davlatning xavfsizligiga tahdidni oldini olish;

– axborotni yo‘q qilish, modifikatsiyalash, buzish, nusxa olish, blokirovka qilish kabi noqonuniy harakatlarning oldini olish;

– axborot resurslari va axborot tizimlariga noqonuniy ta‘sir qilishning boshqa shakllarini oldini olish, hujjatlashtirilgan axborotga shaxsiy mulk ob‘ekti sifatida huquqiy rejimni ta‘minlash;

– axborot tizimida mavjud bo‘lgan shaxsiy ma‘lumotlarning maxfiyligini va konfidentsialligini saqlash orqali fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini himoyalash;

– davlat sirlarini saqlash, qonunchilikka asosan hujjatlashtirilgan axborotlar konfidentsialligini ta‘minlash;

– axborot jarayonlarida hamda axborot tizimlari, texnologiyalari va ularni ta‘minlash vositalarini loyihalash, ishlab chiqish va qo‘llashda sub‘ektlarning huquqlarini ta‘minlash.

Axborotni muhofaza qilishning samaradorligi uning o‘z vaqtidaligi, faolligi, uzluksizligi va kompleksligi bilan belgilanadi. Himoya tadbirlarini kompleks tarzda o‘tkazish axborotni tarqab ketishi mumkin bo‘lgan xavfli kanallarni yo‘q qilishni ta‘minlaydi. Ma‘lumki, birgina ochiq qolgan axborotni tarqab ketish kanali butun himoya tizimining samaradorligini keskin kamaytirib yuboradi.

Axborotni muhofaza qilish sohasidagi ishlar holatining tahlili shuni ko‘rsatadiki, muhofaza qilishning to‘liq shakllangan konsepsiyasi va tuzilishi hosil qilingan, uning asosini quyidagilar tashkil etadi:

– sanoat asosida ishlab chiqilgan, axborotni muhofaza qilishning o‘ta takomillashgan texnik vositalari;

– axborotni muhofaza qilish masalalarini hal etishga ixtisoslashtirilgan tashkilotlarning mavjudligi;

– ushbu muammoga oid yetarlicha aniq ifodalangan qarashlar tizimi;

– yetarlicha amaliy tajriba va boshqalar.

¹⁵ «Алоқа ва ахборотлаштириш соҳасида ахборот хавфсизлиги: Атамалар ва таърифлар». Тармоқ стандарти: TSt 45-010:2010.

Biroq, xorijiy matbuot xabarlariga ko'ra ma'lumotlarga nisbatan jinoiy harakatlar kamayib borayotgani yo'q, aksincha barqaror o'sish tendensiyasiga ega bo'lib bormoqda.

Umumiy yo'nalishga ko'ra axborot xavfsizligiga tahdidlar quyidagilarga bo'linadi:

- O'zbekistonning ma'naviy ravnaqi sohalarida, ma'naviy hayot va axborot faoliyatida fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklariga tahdidlar;
- mamlakatning axborotlashtirish, telekommunikatsiya va aloqa vositalari industriyasini rivojlanishiga, ichki bozor talablarini qondirishga, uning mahsulotlarini jahon bozoriga chiqishga, shuningdek mahalliy axborot resurslarini yig'ish, saqlash va samarali foydalanishni ta'minlashga nisbatan tahdidlar;
- Respublika hududida joriy etilgan hamda yaratilayotgan axborot va telekommunikatsiya tizimlarining me'yorida ishlashiga, axborot resurslari xavfsizligiga tahdidlar.

Axborot hisoblash tizimlarida axborot xavfsizligini ta'minlash nuqtai nazaridan o'zaro bog'liq bo'lgan uchta tashkil etuvchini ko'rib chiqish maqsadga muvofiq:

- 1) axborot;
- 2) texnik va dasturiy vositalar;
- 3) xizmat ko'rsatuvchi personal va foydalanuvchilar.

Har qanday axborot hisoblash tizimlarini tashkil etishdan maqsad foydalanuvchilarning talablarini bir vaqtda ishonchli axborot bilan ta'minlash hamda ularning konfidentsialligini saqlash hisoblanadi. Bunda axborot bilan ta'minlash vazifasi tashqi va ichki ruxsat etilmagan ta'sirlardan himoyalash asosida hal etilishi zarur. Axborot tarqab ketishiga konfidentsial ma'lumotning ushbu axborot ishonib topshirilgan tashkilotdan yoki shaxslar doirasidan nazoratsiz yoki noqonuniy tarzda tashqariga chiqib ketishi sifatida qaraladi.

Axborotni muhofaza qilish tizimlaridan foydalanish amaliyoti shuni ko'rsatmoqdaki, faqatgina kompleks axborotni muhofaza qilish tizimlari samarali bo'lishi mumkin. Unga quyidagi chora-tadbirlar kiradi:

1. Qonunchilik. Axborot himoyasi sohasida yuridik va jismoniy shaxslarning, shuningdek davlatning huquq va majburiyatlarini qat'iy belgilovchi qonuniy aktlardan foydalanish.
2. Ma'naviy-etik. Ob'ektda qat'iy belgilangan o'zini tutish qoidalarining buzilishi ko'pchilik xodimlar tomonidan keskin salbiy baholanishi joriy etilgan muhitni hosil qilish va qo'llab quvvatlash.
3. Jismoniy. Himoyalangan axborotga begona shaxslarning kirishini taqiqlovchi jismoniy to'siqlar yaratish.
4. Ma'muriy. Tegishli maxfiylik rejimi, kirish va ichki rejimlarni tashkil etish.

5. Texnik. Axborotni muhofaza qilish uchun elektron va boshqa uskunalardan foydalanish.
6. Kriptografik. Ishlov berilayotgan va uzatilayotgan axborotlarga noqonuniy kirishni oldini oluvchi shifrlash va kodlashni tatbiq etish.
7. Dasturiy. Foydalana olishlilikni chegaralash uchun dastur vositalarini qo'llash. Fizik, apparatli, dasturli va hujjatli vositalarni o'z ichiga oluvchi barcha axborot tashuvchilarga kompleks holda himoya ob'ekti sifatida qaraladi. Odatda, so'nggi vaqtlarda axborotdan foydalanish, saqlash, uzatish va qayta ishlashda turli ko'rinishdagi axborot tizimlarida amalga oshirilmoqda.

Huquqiy himoya – axborotni himoyalash bo'yicha subyektlarning munosabatlarini tartibga soluvchi, amalda joriy etuvchi hamda ularning bajarilishini nazorat qiluvchi qonunchilik va normativ-xuquqiy hujjatlar asosida axborotni huquqiy usullar bilan himoyalashdir. Axborotni huquqiy himoyalash choralari O'zbekiston Respublikasining mazkur sohadagi qonunlari, Prezident farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qaror va farmoyishlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar kiradi. Axborotga murojaat qilish qoidalari, axborot munosabati qatnashchilari, ularning huquqlari va majburiyatlari, shuningdek, qonunchilik talablari buzilgan hollarda javobgarlik qonunchilik darajasida ko'rib chiqiladi va tartibga solinadi.

Axborot xavfsizligi sohasida mutaxassislarni tayyorlash, malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimi hozirgi kunning asosiy masalalaridan biri bo'lib kompyuter jinoyatchiligi va kiberterrorchilikka qarshi kurash hisoblanadi. Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatchilik spektri nihoyatda keng, u internet firibgarlikdan tortib to bolalar pornografiyasi va elektron josuslik (ayg'oqchilik), hamda terrorlik aktlarga tayyorgarlik kabi potensial xavfli harakatlarni o'z ichiga oladi. To'g'ri tanlangan milliy kadrlarni tayyorlash siyosati orqali axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlarning o'sishiga jiddiy to'sqinlik yaratish mumkin. Mutaxassislarni tayyorlash masalasi, ayniqsa juda dolzarb hisoblanadi. Chunki hozirgi kunda kompyuter tarmoqlarini buzishni va boshqa kiberjinoyatlarni amalga oshirishni o'rganish bo'yicha axborotga ega bo'lish juda oson. Kompyuter jinoyatchiligini sodir etish texnologiyasi keltirilgan bosma nashrlar erkin tarqatiladi (misol uchun yoshlar orasida ommalashgan «Xaker» va «Spetsxaker» jurnallarini keltirish mumkin). Hozirgi kunda ixtiyoriy o'spirin arzimagan pulga axborot tizimlariga hujum qilishning elementar usullarini o'rgatuvchi kitobni sotib olishi mumkin. Kitobda bayon etilgan usullarni o'zlashtirgan bunday o'spirin kompyuter tizimlari xavfsizligiga tahdid soluvchiga aylanishi mumkin.

Internetda kompyuter buzg'unchiligini o'rgatuvchi ko'plab saytlar mavjud. Internet tarmog'ida kompyuter jinoyatchiligini sodir etish bo'yicha malaka

almashishga imkon beruvchi forumlar, virtual konferensiyalar o'tkaziladi. Shunday qilib, kompyuter jinoyatchilari o'z malakasini oshirish ustida faol ish olib borishadi, o'z qatoriga o'sayotgan avlodlarni jalb qilib, ularni o'qitishadi. Bularning barchasi deyarli legal (ochiq) ravishda amalga oshirilmoqda. Bu holatlar dolzarb va muhim bo'lgan yana bir masalani yechishni – jinoyat olamiga yoshlarning kirishiga qarshi kurashish va yoshlar orasida tarbiyaviy ishlarni olib borishning samarali usullarini yaratish zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi. Kompyuter jinoyatchiligini sodir etishga qarshi immunitetni hosil qiluvchi yuqori axloq-odobni shakllantirish bilan uyg'unlashgan zamonaviy axborot texnologiyalarini o'rgatuvchi ta'lim-tarbiyaning usullarini yaratish ta'limning eng muhim masalalaridan biri hisoblanadi.

Hozirgi zamon talablarini inobatga olgan holda axborot xavfsizligi sohasida kadrlar tayyorlashning asosiy prinsiplarini quyidagicha ifodalash mumkin:

- nazariy bilimlar darajasi xalqaro darajaga yaqinlashishi kerak mahalliy sharoitlarda ish yuritishning amaliy ko'nikmalarini olishga yo'naltirish kerak;
- asosiy e'tibor xavfsizlikni ta'minlash masalalariga qaratilishi kerak.

Axborot xavfsizligi borasida O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi muhim o'rin egallaydi. Ushbu kodeksning "Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlar" deb nomlanuvchi XXI bobida axborot texnologiyalari sohasida sodir etiluvchi jinoyatlarga jazo belgilab qo'yilgan. Axborotlarni kriptografik himoyalash borasidagi masalalarni tartibga solish 2007-yil 3-apreldagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida axborotni kriptografik muhofaza qilishni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-614 sonli qarorida¹⁶ o'z aksini topgan bo'lib, unga ko'ra ushbu sohada O'zbekiston Respublikasining Davlat xavfsizlik xizmati mas'ul organ hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 27-iyundagi "O'zbekiston Respublikasi Milliy axborot-kommunikatsiya tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorining qabul qilinishi mamlakatimizda axborot xavfsizligi masalalarini yechish borasida muhim tashkiliy qadam bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 16-sentyabrdagi 250-sonli qarori¹⁷ bilan, O'zbekistonda elektron hukumat tizimini yanada rivojlantirish maqsadida,

¹⁶ Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – 2007. – № 14. – 140-м.

¹⁷ «Ўзбекистон Республикасининг Ахборот технологиялари ва коммуникацияларини ивожлантириш вазирлиги ҳузуридаги «Электрон ҳукумат» тизимини ривожлантириш маркази ҳамда Ахборот хавфсизлигини таъминлаш маркази фаолиятини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Қарор // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – 2013. – №38 – 492-м.; 2015. – №26. – 338-м.

maxsus markazlar – «Elektron hukumat tizimini rivojlantirish markazi» hamda «Axborot xavfsizligini ta'minlash markazi»ni tashkil etish belgilangan. Ushbu qaror bilan, «Elektron hukumat tizimini rivojlantirish» hamda «Axborot xavfsizligini ta'minlash markazi»ning tuzilmasi va faoliyati tartibini belgilovchi Nizom qabul qilingan. «Axborot xavfsizligini ta'minlash markazi»ning asosiy vazifalari biri etib qonun buzuvchilarni tahlil qilish, identifikatsiyalashda, axborotlar makonidagi ruxsatsiz yoxud buzuvchi harakatlarni amalga oshirishda foydalaniladigan metodlar va vositalarni tahlil qilishda huquqni muhofaza qilish organlari bilan hamkorlik qilish belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 4-fevraldagi farmoniga asosan «O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi» tashkil etildi. Mazkur farmon bilan yurtimizda axborot xavfsizligini ta'minlash va kommunikatsiya tarmoqlari, dasturiy mahsulotlar, axborot tizimlari va resurslarini himoya qilishning zamonaviy texnologiyalarini tatbiq etish chora-tadbirlarini amalga oshirish, axborot resurslarini himoya qilish bo'yicha texnik infratuzilmani yanada rivojlantirish kabi masalalar ushbu vazirlikning asosiy vazifalari hamda faoliyat yo'nalishlari sifatida belgilab qo'yildi. Bugungi kunda mamlakatimizda axborot xavfsizligi sohasida yagona konseptual hujjatni yaratish zamon talabidir. Bunday hujjat axborot xavfsizligi sohasida normativ-huquqiy bazani takomillashtirish bo'yicha ishlarni, ushbu sohada yagona standartni ishlab chiqish va joriy etish faoliyatini yo'naltirishga, shuningdek, mazkur sohada kadrlar siyosatini rivojlantirishning zaruriy choralarini aniqlashga imkon yaratadi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 16-sentyabrdagi 250-sonli qarori¹⁸ bilan, O'zbekistonda elektron hukumat tizimini yanada rivojlantirish maqsadida, maxsus markazlar – «Elektron hukumat tizimini rivojlantirish markazi» hamda «Axborot xavfsizligini ta'minlash markazi»ni tashkil etish belgilangan. Ushbu qaror bilan, «Elektron hukumat tizimini rivojlantirish» hamda «Axborot xavfsizligini ta'minlash markazi»ning tuzilmasi va faoliyati tartibini belgilovchi Nizom qabul qilingan. «Axborot xavfsizligini ta'minlash markazi»ning asosiy vazifalari biri etib qonun buzuvchilarni tahlil qilish, identifikatsiyalashda, axborotlar makonidagi ruxsatsiz yoxud buzuvchi harakatlarni amalga oshirishda foydalaniladigan metodlar va vositalarni tahlil qilishda huquqni muhofaza qilish organlari bilan hamkorlik qilish belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 4-fevraldagi farmoniga asosan «O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi» tashkil etildi. Mazkur farmon bilan yurtimizda axborot xavfsizligini ta'minlash va

¹⁸ Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси. – 2000.

kommunikatsiya tarmoqlari, dasturiy mahsulotlar, axborot tizimlari va resurslarini himoya qilishning zamonaviy texnologiyalarini tatbiq etish chora-tadbirlarini amalga oshirish, axborot resurslarini himoya qilish bo'yicha texnik infratuzilmani yanada rivojlantirish kabi masalalar ushbu vazirlikning asosiy vazifalari hamda faoliyat yo'nalishlari sifatida belgilab qo'yildi. Bugungi kunda mamlakatimizda axborot xavfsizligi sohasida yagona konseptual hujjatni yaratish zamon talabidir. Bunday hujjat axborot xavfsizligi sohasida normativ-huquqiy bazani takomillashtirish bo'yicha ishlarni, ushbu sohada yagona standartni ishlab chiqish va joriy etish faoliyatini yo'naltirishga, shuningdek, mazkur sohada kadrlar siyosatini rivojlantirishning zaruriy choralarini aniqlashga imkon yaratadi.

2.2. Axborotni muhofaza qilish sohasida litsenziyalash va sertifikatlash.

O‘zbekiston Respublikasining 2000-yil 25-maydagi «Faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash to‘g‘risida»gi 71-II-sonli qonuni¹⁹ turli faoliyat sohasida litsenziyalashni amalga oshirish bo‘yicha asosiy hujjat hisoblanadi.

Ushbu qonunning 3-moddasida quyidagi asosiy tushunchalar keltirilgan:

- litsenziya – litsenziyalovchi organ tomonidan yuridik yoki jismoniy shaxsga berilgan, litsenziya talablari va shartlariga so‘zsiz rioya etilgani holda faoliyatning litsenziyalanayotgan turini amalga oshirish uchun ruxsatnoma (huquq); faoliyatning litsenziyalanayotgan turi – O‘zbekiston Respublikasi hududida amalga oshirilishi uchun litsenziya olish talab qilinadigan faoliyat turi;
- litsenziyalash – litsenziya berish to‘g‘risidagi arizani topshirish va ko‘rib chiqish, litsenziyaning amal qilishini to‘xtatib turish yoki tugatish, shuningdek uni bekor qilish va qayta rasmiylashtirish jarayoni bilan bog‘liq tadbirlar kompleksi; litsenziya talablari va shartlari – faoliyatning litsenziyalanayotgan turini amalga oshirayotganda litsenziat tomonidan bajarilishi majburiy bo‘lgan, qonun hujjatlarida belgilangan talablar va shartlarning majmui;
- litsenziyalovchi organlar – qonun hujjatlariga muvofiq litsenziyalashni amalga oshiruvchi maxsus vakolatli organlar;
- litsenziat – faoliyatning litsenziyalanadigan turini amalga oshirish litsenziyasi bo‘lgan yuridik yoki jismoniy shaxs;
- litsenziyalar reyestri – berilgan, to‘xtatib turilgan, qayta tiklangan, qayta rasmiylashtirilgan, bekor qilingan litsenziyalar, shuningdek amal qilishi tugatilgan litsenziyalar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni o‘z ichiga olgan litsenziyalovchi organlarning ma‘lumotlar bazalari majmui.

Litsenziyalash sohasini davlat tomonidan tartibga solishni ushbu qonunning 4-moddasiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi hamda litsenziyalovchi organlar amalga oshiradi. O‘zbekiston Respublikasida axborotni kriptografik muhofaza qilish (AKMQ) sohasida faoliyatni litsenziyalash tizimi. Litsenziyalash talablari va shartlari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 21-noyabrdagi 242-sonli qarori²⁰ bilan tasdiqlangan «Axborotning kriptografik himoya vositalarini loyihalashtirish, tayyorlash, ishlab chiqarish, realizatsiya qilish, ta‘mirlash va ulardan foydalanish faoliyatini litsenziyalash to‘g‘risidagi Nizom»ning II bo‘limida keltirilgan Axborotni muhofaza qilish sohasida faoliyatning litsenziyalanayotgan turlariga axborotning

¹⁹ Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси. – 200 №5-6. – 142-м.; 2003. – №1. 8-м.; Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – 2006. – №14. – 110-м.; 2006. – 41. – 405-м.; – 2011. – №36. – 363-м.; 2013. – №18. – 233-м.; – 2014. – №50. – 588-м.; – 2015. – №33. – 439-м. – №52., – 645-м.

²⁰ Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – 2007. – №46-47. – 471-м.

kriptografik himoya vositalarini loyihalashtirish, tayyorlash, ishlab chiqarish, realizatsiya qilish, ta'mirlash va qo'llash kiradi.

Axborotni muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni litsenziyalash tizimining normativ-xuquqiy bazasini quyidagilar tashkil qiladi:

- O'zbekiston Respublikasining 2007-yil 17-iyuldagi 102-sonli qonuni²¹ «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2001-yil 12-mayda qabul qilingan «Amalga oshirilishi uchun litsenziyalar talab qilinadigan faoliyat turlarining ro'yxati to'g'risida»gi 222-II-sonli qarorining²² ilovasiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida»;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 3-apreldagi O'zbekiston Respublikasida axborotni kriptografik muhofaza qilishni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 614-sonli qarori²³ bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasida axborotni kriptografik muhofaza qilish to'g'risidagi Nizom;
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 21-noyabrdagi 242-sonli qarori²⁴ bilan tasdiqlangan «Axborotning kriptografik himoya vositalarini loyihalashtirish, tayyorlash, ishlab chiqarish, realizatsiya qilish, ta'mirlash va ulardan foydalanish faoliyatini litsenziyalash to'g'risidagi Nizom».

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005-yil 25-noyabr kunidagi «Axborotlashtirish sohasida normativ-huquqiy bazani takomillashtirish to'g'risida»gi 256-sonli qarori²⁵ bilan tasdiqlangan «Davlat organlarining axborot tizimini yaratish tartibi to'g'risidagi Nizom»ning IV bo'limi "Davlat organlari axborot tizimlarining axborot xavfsizligini ta'minlash" deb nomlanib, uning 24-bandiga muvofiq davlat idoralarining axborot tizimida qo'llaniladigan axborotni himoyalash dasturiy-texnik vositalari litsenziyalangan va sertifikatlashtirilgan bo'lishi kerak. Mazkur bo'limning 281-bandida davlat organlarining davlat sirlariga yoki maxfiy axborotlarga mansub axborot bilan ishlash uchun mo'ljallangan axborot tizimlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda axborot xavfsizligi talablariga muvofiq majburiy attestatsiyadan o'tkazilishi kerakligi belgilangan. Maxsulotni sertifikatlashtirish O'zbekiston Respublikasining mahsulotni (xizmatlarni) sertifikatsiyalashning Milliy tizimi (SMT) asosida amalga oshiriladi. SMT faoliyatini reglamentatsiya qiluvchi asosiy normativ-xuquqiy akt bo'lib O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 28-dekabr kunidagi «Mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlashtirish to'g'risida»gi 1006-XII sonli qonuni²⁶ hisoblanadi.

²¹ Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – 2007. – №29-30. – 295-м.

²² Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – 2007. – №14. – 140-м

²³ Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – 2007. – №46-47.– 471-м

²⁴ Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – 2007. – №46-47.– 471-м

²⁵ Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – 2007. – №46-47.– 471-м

²⁶ Ўзбекистон Республикасининг қонун ҳужжатлари тўплами. – 2005. –№47-48. – 355-м.; 2011. –№ 45-46. – 472-м.

Ushbu qonunning 1-moddasida quyidagi asosiy tushunchalar keltirilgan:

- sertifikatlashtirish milliy tizimi — davlat miqyosida amal qiladigan, sertifikatlashtirish o'tkazishda o'z tartib va boshqaruv qoidalariga ega bo'lgan tizim;
- mahsulotlarni sertifikatlashtirish (matnda bundan keyin sertifikatlashtirish deb yuritiladi) — mahsulotlarning belgilangan talablarga muvofiqligini tasdiqlashga oid faoliyat;
- muvofiqlik sertifikati — sertifikatlangan mahsulotning belgilangan talablarga muvofiqligini tasdiqlash uchun sertifikatlashtirish tizimi qoidalariga binoan berilgan hujjat;

Muvofiqlik belgisi — muayyan mahsulot yoxud xizmat aniq standartga yoki boshqa normativ hujjatga mos ekanligini ko'rsatish uchun mahsulotga yoxud ko'rsatilgan xizmatga doir hujjatga qo'yiladigan, belgilangan tartibda ro'yxatga olingan belgi.

Sertifikatlashtirish (2-modda):

- odamlarning hayoti, sog'lig'i, yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulki hamda atrof-muhit uchun xavfli bo'lgan mahsulotlar realizatsiya qilinishini nazorat etib borish;

- mahsulotlarning jahon bozorida raqobat qila olishini ta'minlash;

- mamlakat korxonalari, qo'shma korxonalar va tadbirkorlar xalqaro miqyosdagi iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy hamkorlikda va xalqaro savdo-sotiqda ishtirok etishlari uchun sharoit yaratish;

- iste'molchini tayyorlovchining (sotuvchining, ijrochining) vijdotsizligidan himoya qilish;

= mahsulot tayyorlovchisi (sotuvchisi, ijrochisi) ta'kidlagan sifat ko'rsatkichlarini tasdiqlash maqsadlarida amalga oshiriladi.

Sertifikatlashtirish majburiy va ixtiyoriy tusda bo'ladi. O'zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish organlari (5-modda):

- ✓ O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi;
- ✓ Bir turdagi mahsulotlarni sertifikatlashtirishga akkreditatsiya qilingan organlar;
- ✓ Sinov laboratoriyalari (markazlari).

O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi («O'zstandart») O'zbekiston Respublikasining milliy sertifikatlashtirish organidir.

Mahsulotlar (shu jumladan dasturiy va boshqa ilmiy-texnikaviy mahsulotlar), xizmatlar, shuningdek sifat tizimlari sertifikatlashtirish obyektlari hisoblanadi (6-modda). Sertifikatlashtirish subyektlari — yuridik shaxslar SMT doirasida sertifikatlashtirish tizimlari tuzishlari mumkin. Yuridik shaxslarning sertifikatlashtirish tizimlari «O'zstandart» agentligi belgilangan tartibda davlat

ro'yxatidan o'tkazilishi shart. O'zbekiston Respublikasi hududida majburiy sertifikatlashtirilishi lozim bo'lgan mahsulotlar nomlari (jumladan, axborotni muhofaza qilishning texnik va kriptografik vositalari) «Majburiy sertifikatlashtirilishi lozim bo'lgan mahsulot turlari ro'yxati»da (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 7-may 90-sonli²⁷ va 2011-yil 28-aprel 122-sonli²⁸ qarorlari) keltirilgan. Axborot xavfsizligi sohasida mutaxassislarni tayyorlash, malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimi. Hozirgi kunning asosiy masalalaridan biri bo'lib kompyuter jinoyatchiligi va kiberterrorchilikka qarshi kurash hisoblanadi. Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatchilik spektri nihoyatda keng, u internet-firibgarlikdan tortib to bolalar pornografiyasi va elektron-josuslik (ayg'oqchilik) hamda terrorlik aktlarga tayyorgarlik kabi potensial xavfli harakatlarni o'z ichiga oladi. To'g'ri tanlangan milliy kadrlarni tayyorlash siyosati orqali axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlarning o'sishiga jiddiy to'sqinlik yaratish mumkin.

Mutaxassislarni tayyorlash masalasi, ayniqsa juda dolzarb hisoblanadi. Chunki hozirgi kunda kompyuter tarmoqlarini buzishni va boshqa kiberjinoyatlarni amalga oshirishni o'rganish bo'yicha axborotga ega bo'lish juda oson. Kompyuter jinoyatchiligini sodir etish texnologiyasi keltirilgan bosma va elektron nashrlar erkin tarqatiladi (misol sifatida «Xaker» va «Spetsxaker» jurnallarini keltirish mumkin). Hozirgi kunda ixtiyoriy o'spirin axborot tizimlariga hujum qilishning elementar usullarini o'rgatuvchi kitobni sotib olishi yoki biror saytdan ko'chirib olishi mumkin. Kitobda bayon etilgan usullarni o'zlashtirgan bunday o'spirin kompyuter tizimlari xavfsizligiga tahdid soluvchiga aylanishi mumkin. Internetda kompyuter buzg'unchiligini o'rgatuvchi ko'plab saytlar mavjud. Internet tarmog'ida kompyuter jinoyatchiligini sodir etish bo'yicha malaka almashishga imkon beruvchi forumlar, virtual konferensiyalar o'tkaziladi. Shunday qilib, kompyuter jinoyatchilari o'z malakasini oshirish ustida faol ish olib borishadi, o'z qatoriga o'sayotgan avlodlarni jalb qilib, ularni o'qitishadi. Bularning barchasi deyarli legal ravishda amalga oshirilmoqda. Bu holatlar dolzarb va muhim bo'lgan yana bir masalani yechishni – jinoyat olamiga yoshlarning kirishiga qarshi kurashish va yoshlar orasida tarbiyaviy ishlarni olib borishning samarali usullarini yaratish zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi. Kompyuter jinoyatchiligini sodir etishga qarshi immunitetni hosil qiluvchi yuqori odob-axloqni shakllantirish bilan uyg'unlashgan zamonaviy axborot texnologiyalarini o'rgatuvchi ta'lim-tarbiyaning usullarini yaratish ta'limning eng muhim masalalaridan biri hisoblanadi.

²⁷ Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – 2008. – №19. – 161-м.

²⁸ Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – 2011. – №18. – 178-м.; 2012. – №38. 436-м.; 2013. – №2. – 24-м.; 2014. – №45. – 548-м.; 2015. – №42. – 534-м.

Hozirgi zamon talablarini inobatga olgan holda axborot xavfsizligi sohasida kadrlar tayyorlashning asosiy prinsiplarini quyidagicha ifodalash mumkin:

- nazariy bilimlar darajasi xalqaro darajaga yaqinlashishi kerak;
- mahalliy sharoitlarda ish yuritishning amaliy ko‘nikmalarini olishga yo‘naltirish kerak;
- asosiy e‘tibor xavfsizlikni ta‘minlash masalalariga qaratilishi kerak.

Axborot xavfsizligi sohasida kadrlarni tayyorlash tizimini rivojlantirish eng dolzarb muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. Bunda kadrlar tayyorlashning barcha sathlarini qamrab olish (“vertikal” bo‘yicha) hamda gumanitar sohada va tabiiy–ilmiy, texnik va gumanitar yo‘nalishlar tutashgan joylarda axborot xavfsizligi muammosi hal etish (“gorizontal” bo‘yicha) zarur. Birinchi navbatda xuquqni muhofaza qiluvchi organlarda va sudlarda kompyuter sohasidagi jinoyatchilikka qarshi kurashish bo‘yicha mutaxassislarni tayyorlash lozim. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2002-yil 7-noyabrdagi “Toshkent axborot texnologiyalari universiteti faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi 385–sonli qaroriga²⁹ muvofiq bu universitet respublikaning aloqa va axborot texnologiyalari sohasida kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va mutaxassislar malakasini oshirish bo‘yicha bazaviy oliy ta‘lim muassasasi hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 24-martdagi “Toshkent shahrida Inxa universitetini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-2155-sonli qaroriga³⁰ asosan xalqaro standartlar darajasidagi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashni yanada takomillashtirish, shuningdek ilg‘or xorijiy oliy ta‘lim muassasalari bilan hamkorlikni kengaytirish maqsadida Toshkent shahrida Inxa Universiteti tashkil etildi.

²⁹ Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – 2002. – №21. – 169-м.; 2003. – №4. – 42-м.

³⁰ Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий база-си. – www.lex.uz

2.3. Axborot xavfsizligi sohasida milliy xavfsizlikni ta'minlashda milliy g'oyaning ustivorligi.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A. Karimov ta'kidlab o'tganidek, «Jamiyatni ma'naviy yangilashdan bosh maqsad – yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq erkinligi va farovonligiga erishish va komil insonni tarbiyalash, ijtimoiy hamkorlik va millataro totuvlik, diniy bag'rikenglik kabi ko'p-ko'p muhim masalalardan iborat»³¹.

Bu ulkan vazifalarni ma'naviyatimizni milliylik asosida boyitib borsakkina amalga oshirishimiz mumkin bo'ladi. Islom Karimov o'z asarida mamlakatimizda milliy ma'naviyatni tiklash va rivojlantirish davlat siyosatida ustivor vazifa ekanligiga e'tiborni qaratib quyidagi konseptual g'oyani ilgari suradi. U shunday yozadi: «Oldin odamlarga moddiy boylik berish, so'ngra ma'naviyat to'g'risida o'ylash kerak deydiyanlar haq bo'lmasa kerak. Ma'naviyat – insonning, xalqning, jamiyat, davlatning kuch-qudratidir. U yo'q joyda hech qachon baxt-saodat bo'lmaydi...» Bugungi kunda nafaqat O'zbekistondagi yoshlar ongida ma'naviy bo'shliq vujudga kelmasligi uchun ularning qalbi va ongida sog'lom hayot tarzi, milliy va umummilliy qadriyatlarga hurmat-ehtirom tuyg'usini bolalik paytidan boshlab shakllantirishimiz zarur³². O'zbekiston Respublikasining axborotlashtirish sohasidagi davlat siyosati axborot resurslari, axborot texnologiyalari va axborot tizimlarini rivojlantirish hamda takomillashtirishning zamonaviy jahon tamoyillarini hisobga olgan holda, milliy axborot tizimini yaratishga qaratilgan. Ta'kidlash joizki, milliy axborot tizimiga davlat organlari, shuningdek, yuridik hamda jismoniy shaxslar, tarmoq va hududiy axborot tizimlari kiradi. Axborot tizimi esa axborotni to'plash, saqlash, izlash, unga ishlov berish hamda undan foydalanish imkonini beradigan, tashkiliy jihatdan tartibga solingan jami axborot resurslari, axborot texnologiyalari va aloqa vositalaridir. Axborot tizimi tarkibidagi elektron shakldagi axborot, ma'lumotlar banki, ma'lumotlar bazasi axborot resurslarini tashkil etadi.

Muhofazaga ehtiyoj. Bugungi kunda turli ko'rinishdagi (iqtisodiy, ijtimoiy, mudofaa, axborot, ekologik) xavfsizlikka tahdid bor ekan muhofazaga ham ehtiyoj muqarrar. Zero, Yurtboshimiz: «Shuni esda tutishimiz kerakki, butun tarix tahdidlar va ularni daf etishdan iborat», deb ta'kidlagani bejiz emas, albatta. Ulug'alloma Abu Nasr Forobiy ham bu borada: «Davlatni aql-idrok bilan boshqarish, xalq boshiga tushgan xavf-xatarni kamaytirish va bartaraf etishdan iboratdir» — deb yozgandi. Shu ma'noda, axborot, axborot resurslari, kompyuter tarmoqlari va

³¹ Islom Karimov. Milliy istiqloq mafkurasi -xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. Toshkent, «O'zbekiston, 2000y, 23-24 betlar».

³² Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T., Ma'naviyat, 115-bet.

korporativ tizimlarga nisbatan xavfsizlikka tahdidlarning oldini olish masalasi — bugungi kunda yanada dolzarb hisoblanadi. Negaki, har qanday korxonalar (tashkilot, muassasa, birlashma, kompaniya)ning samarali faoliyat ko'rsatishi moddiy, tabiiy, mehnat, moliyaviy, energetik resurslar bilan kafolatlanmaydi. Ulardan qanday qilib oqilona foydalanish uchun sohadagi texnologiyalar to'g'risida yetarlicha, axborotga ega bo'lish ham talab etiladi. Zotan, axborot qolgan barcha resurslardan samarali foydalanish uchun keng imkoniyatlar yaratib beradigan yagona resurs hisoblanadi. Shuning uchun ham nafaqat xorijda, balki respublikada ham axborot resurslari va axborot tizimlarini muhofaza qilishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda.

Ochiq axborot tizimlarida axboriy-psixologik xavfsizlikni ta'minlash hozirgi kunning dolzarb talabidir. Har bir davlat buning ustida bosh qotirmoqda. Bu jahondagi yangi geosiyosiy taqsimot, yangi mintaqaviy nizolarning yuzaga kelishi, millatchilik, shovinizm, din niqobidagi ekstremizm, ekologik halokatning tahdidi kuchayishi, spid, parranda gripi va boshqa yuqumli kasalliklarning tarqalishi bilan bog'liqdir. Yuqorida qayd etilganlarning barchasi O'zbekiston Respublikasi uchun ham mazkur muammolar muhim ekanligini alohida ta'kid etadi. Buning dolzarbligi davlatimiz uchun milliy mustaqillikni yanada mustahkamlash, iqtisod va bozor munosabatlarini tadrijiy rivojlanishini ta'minlash, ijtimoiy islohotlarni chuqurlashtirishda yaqqol ko'rinadi. Bunda Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish, milliy an'analarni hayotga qaytarish, murosasozlikni tarbiyalash ham katta ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, mustaqil dunyo qarashga ega ma'lumotli kishilargina turli xil talqindagi tazyiqlarga ruhan barqaror qarshilik ko'rsata oladilar. Bu birinchidan. Ikkinchidan, mana shunday kishilargina tegishli muhit yaratishlari va milliy g'oyalarning darg'alari hisoblanadi. Mana shuning uchun ham mazkur muammolarni o'rganishda axborotning shakli va mohiyati; axborot xavfsizligini ta'minlash; ochiq axborot tizimlarining o'ziga xosligi; shaxs, jamiyat va davlat axboriy-psixologik xavfsizligini ta'minlash manbalari va turlari; axborot sohasidagi milliy xavfsizlikni ta'minlashning ahamiyati va tamoyillari; OAV va axboriy qarama-qarshilik; axboriy-psixologik xavfsizlikni ta'minlashda asosiy yo'nalish va usullar; ochiq axborot tizimlarda shaxsning o'z-o'zini himoya qilishi; jamoatchilik fikri va jamiyat axboriy-psixologik xavfsizligi; O'zbekiston OAV lari va jamiyatning psixologik xavfsizligi kabi mavzularni chuqurroq o'rganish talab etiladi. Yuqorida sanab o'tilgan mavzularni o'rganishda axborot, axboriy xavfsizlik, milliy manfaatlar, axborot sohasidagi milliy manfaatlarga bo'lgan xavf, manbalari, jamoatchilik fikri, ochiq axborot tizimlari, globalashuv, axboriy qarama-qarshilik, axboriy-psixologik kurash, OAVlari, onglilik, idroklash, aks ettirish manikulyatitsiya qilish, psixologik qo'poruvchilik, ijtimoiy targ'ibot, jamoatchilik ongi, insonni xufiyona boshqarish va boshqalarga alohida e'tibor qaratish joiz. Psixologiya, sotsiologiya, falsafa, OAV nazariyalaridan olingan bu

tushuncha va terminlar fanni chuqurroq tushunishga, uning asosiy mazmunini, usullari va yo`sinlarini, ya`ni ochiq axborot tizimlarida foydalanayotgan usullarni idrok etishga, demak, ijobiy g`oyalarni salbiy g`oyalardan farqlay olishga ko`maklashadi. Ma`lumki, har qanday dalil, hodisa yoki voqea turlicha talqin etilishi mumkin, shunga bog`liq tarzda auditoriya tomonidan qabul etilishi ham mumkin. Shuning uchun avval boshidanoq, tushunchaviy apparatni belgilab olish, uni sharhlash lozim, shundan kelib chiqqan holda biror hodisa yoki voqeani biz qanday idrok etishimiz va talqin qilishimizga e`tibor berishimiz darkor. Jamoatchilik fikri, bu hozirgi payt uchun dolzarb bo`lgan turmush muammolariga kishilarning munosabatini ifoda etuvchi ijtimoiy ong shaklidir. Aslida tezkor bo`lgan ongning bu shakli yuqori darajada jamiyat turli institutlari tomonidan ko`rsatilayotgan ta`sir ostidadir, demak, bu manikulyativ ta`sirga ham chalingandir. Jamoatchilik fikrini manikulyatssiya qilish (ya`ni, chalg`itish) muayyan maqsadni ko`zlab amalga oshiriladi. Bunda chalg`itish (manikulyatssiya) qilish tushunchasining nisbiyligi haqida aytib o`tish kerak, chunki istalgan tomon jamoatchilik fikriga har qanday ta`sirni chalg`itish (manikulyatssiya) deya baholashi mumkin. Shuni alohida ta`kidlash joizki, hozirgi jamiyatda yagona bo`lgan ijtimoiy fikr ehtimoldan yiroqdir. Demokratiyaning tamoyillaridan biri ham mana shudir. Milliy g`oya jamiyatni jipslashtiruvchi, uni ijtimoiy taraqqiyot ko`ndalang qo`yayotgan masalalarni hal qilishga, chetdan bo`layotgan g`oyaviy, ma`naviy tahdidlardan himoyalashga qaratilgan kuchdir. Uning mohiyati shundaki, u odamlar ongidagi, xotirasidagi g`oyaligicha qolmay amaliyotga, hayotga aylangan taqdirdagina haqiqiy milliy va haqiqiy istiqloq g`oyasi bo`lishi mumkin. Shundagina u milliy ma`naviyatni va ma`naviy o`zlikni tashqi mafkuraviy tahdidlardan himoya qiladigan kuchga aylanadi. Milliy istiqloq g`oyasining hayotimiz jarayoniga singib ketishini ta`minlash uchun esa, g`oyalar amaliy harakatlarga aylanishi jarayonini sinchiklab o`rganishi kerak. Buning uchun dastavval, g`oya bevosita amaliyotga, amaliyot dasturiga aylanishi mumkinmi? Agar mumkin bo`lsa, bu jarayon qanday yuz beradi, degan savollarga javob topish kerak. Zamonaviy psixologiya, ijtimoiy psixologiya va boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar nuqtai nazaridan bu savolga «ko`pincha aylanmaydi» deb javob berish kerak. Chunki, inson ongida, miyasida o`nlab, yuzlab va hatto minglab g`oyalar bo`ladi. Ularning barchasi amaliyotga aylanaversa inson ham ma`nan, ham jismonan mayda bo`laklarga bo`linib, parchalanib ketishi kerak edi. Chunki, ayni bir inson ongida ayni bir paytning o`zida o`nlab turli xil, jumladan, diniy, axloqiy, siyosiy, ilmiy, badiiy va boshqa xil g`oyalar bo`lishi tabiiy. Ular bir-birlarini to`lg`azishi va ko`pincha bir-birlariga to`la mos kelmasligi mumkin. Natijada, shaxs bu g`oyalardan eng zarurlarini va o`zi eng to`g`ri, deb bilganlarini ajratib hayotga tadbiq qiladi. Ana shu tanlash, ya`ni g`oyaning amaliyotga o`tishidagi

muhim bosqichni to'laroq va chuqurroq anglash uchun shu tanlash mezonlarini aniqlab olish zarur. G'oyalarni saralashda shaxs foydalanadigan mezonlarning eng muhimlaridan biri, saralab olinayotgan g'oyaning shaxs manfaatlariga, ehtiyojlariga, ustanovkalariga, e'tiqodiga mosligidir.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ma'naviyatga qarshi turli xurujlar haqida gapirar ekan, ta'kidlab o'tadiki: "Bu haqda gapirganda, faqat bitta millat yoki xalq haqida fikr yuritish masalani o'ta tor tushunish bo'lur edi, ya'ni, bu o'rinda so'z faqat bizning ma'naviyatimizga qarshi qaratilgan tajovuzlar haqida, azaliy fazilatlarimiz, milliy qadriyatlarimizni ana shunday hujumlardan asrash xususidagina borayotgani yo'q. Muhim ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan ushbu muammoni keng miqyosda, dunyoning barcha mamlakatlari va xalqlari hayotiga daxldor masala sifatida o'rganish, tahlil qilish va baholash maqsadga muvofiqdir". Masalaga bunday keng qamrovli yondoshuv kecha yoki bugun paydo bo'lgani yo'q. I.A.Karimovning o'zi ham eslab o'tganidek, bizning ulug' ajdodlarimiz barchasi "o'z ijodi bilan nafaqat ikki daryo oralig'idagi xalqlarni, balki butun bashariyat farzandlarini doimo mehr-oqibatli, do'st-birodar bo'lib yashashga" da'vat etib kelganlar.

XX asrda dunyoda g'oyaviy qarama-qarshiliklar keskin va murakkab tus olgan davr bo'ldi. XX asr so'ngida ikki qutbli dunyoning barham topishi, nisbiy muvozanatning buzilishi natijasida jahondagi mafkuraviy manzaralar tubdan o'zgardi. Yurtboshimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek, «XX asr oxirida dunyoda jo'g'rofiy-siyosiy ahamiyati va ko'lami jihatidan noyob o'zgarishlar ro'y bermoqda. Bu o'zgarishlar betakror. Ular nafaqat mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda vujudga kelgan qarashlar va ularning mexanizmlarini chuqur o'ylab ko'rishni, balki ko'p jihatdan qayta baholashni ham talab qiladi. «Sovuq nurush» davrida xalqaro munosabatlarga asos bo'lgan ko'p qoidalar, tamoyillar va g'oyalarni tubdan qayta ko'rib chiqish talab qilinmoqda. Butun dunyo yaxlit va bir-biriga bog'liq tizim bo'lib bormoqda, unda o'zi - o'zidan qanoatlanishga va mahdudlikka o'rin yo'q. Bu hol hozirgi xalqaro munosabatlarni shakllantirganda, xalqaro tuzilmalar bilan o'zaro aloqalarda va ularning faoliyatida ishtirok etganda mutlaqo yangicha yondashuvlarni ishlab chiqishni zarur qilib qo'yimoqda»³³.

Insoniyat tarixi – XXI asrga qadam qo'ydi. Mantiqan insoniyat o'tmishdan tegishli saboqlar chiqarishi va XXI asrda tarix varaqlariga xijolatlik bilan bitiladigan voqea-hodisalarning sodir bo'lishiga yo'l qo'ymasligi kerak edi. Qashshoqlik, ekologik muammolar, zaxiralar taqchiligi, ommaviy kasalliklar, diniy aqidaparastlik va terrorizm XX asrdan XXI asrga meros bo'lib o'tdi. Xavfxatarlarga jiddiy razm soladigan bo'lsak, mustamlakachilik siyosati, birovlarni

³³ Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. T.: 6. - T.: «O'zbekiston», 1998, 240-241 - betlar

qaram qilish siyosati yangi asrda yo'qolmaganini, balki o'zining shakli shamoyilini o'zgartirganini tushunib yetamiz³⁴. Darhaqiqat, «Millat bor ekan, illiy davlat bor ekan, uning mustaqilligi va erkinligiga, an'ana va urf-odatlariga tahdid soladigan, uni o'z ta'siriga olish, uning ustidan hukmronlik qilish, uning boyliklaridan o'z manfaati yo'lida foydalanishga qaratilgan intilish va harakatlar doimiy xavf sifatida saqlanib qolishi muqarrar»³⁵. Aslida, suverenitet davlat miqyosida oliy hokimiyatga egalikni, tashqi va ichki siyosatni olib borishdagi to'la mustaqillikni anglatadi. Aynan suverenitet muayyan davlat mustaqilligining birlamchi sharti va belgisidir. Bu esa suverenitetning qisman yoki cheklangan shaklda mavjud bo'la olmasligini anglatadi. Chunki suverenitet davlatning boshqa davlatlarga tobe bo'lmay, qaram bo'lmay yashashini, o'zga kuchlar tomonidan boshqarilmay, birovlarining irodasiga bo'ysunmay, mustaqil hayot kechirishini nazarda tutadi. Muhimi, davlat suverenitetining o'rnatilishi mamlakatlar o'rtasida tenglik qaror topishini shartlab qo'yadi hamda mutelik, o'zgalar hisobiga yashash, turli kamsitishlar, ortiqcha ta'zim-tavozega yo'l qo'ymaydi. Davlat suvereniteti mustamlakachilikning har qanday shaklini, uning kamsituvchi tabiatini, u taqozo etadigan zo'ravonliklarni inkor etadi³⁶.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov tomonidan e'tirof etilganidek, «O'zbekistonni olib borayotgan mustaqil siyosatdan qaytarish, kimgadir qaram qilish maqsadida chetdan turib ichki ishlarimizga aralashish, turli niqblar ostida bizga qarshi tazyiq va zo'ravonlik o'tkazish siyosatini mutlaqo qabul qilmaymiz»³⁷. Taassuf bilan tan olish kerak, diniy aqidaparastlik va terrorizm, «demokratiyani olg'a siljitish»ga urinishlar, axborot xurujlari, g'arbona turmush tarzini tiqishtirish, ma'naviy qashshoqlashtirish harakatlari, buyuk davlatchilik tafakkuri va imperiyacha fikrlash xurujlari davlatimiz suverenitetiga jiddiy xavf tug'dirmoqda. Dunyoga hukmronlik qilishning eng oson va qisqa yo'llarini izlayotgan kuchlar tinchlikni oliy ne'mat deb biladigan, saxiy zamini tabiiy boyliklarga to'la, xalqi soddadil va mehnatkash O'zbekistonni o'z ta'sir doirasiga olishga intilayotganligini payqamaslik mumkin emas. Shuning uchun ham mustaqillikni asrab-avaylash, himya qili shva mustahkamlash O'zbekistonda davlat siyosatining ustuvor vazifasi etib belgilangan. Davlatlar suverenitetini kemiruvchi xavf-xatarlarga yuzaki qarash,

³⁴ Abbosxo'jayev, Umarova N., Qo'chqorov R. Mafkura poligonlaridagi olishuv. – Toshkent, «Akademiya», 2007. 14-15-betlar.

³⁵ Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – Toshkent, «O'zbekiston», 2000, 3-bet.

³⁶ Abbosxo'jayev, Umarova N., Qo'chqorov R. Mafkura poligonlaridagi olishuv. – Toshkent, «Akademiya», 2007. 16-bet.

³⁷ Karimov I.A. Inson, uning huquq va erkinliklari hamda manfaatlari – eng oliy qadriyat. // Xalq so'zi, 2005 yil 8 dekabr.

ularni tahdid manbai sifatida e'tirof etmaslik insoniyat boshiga yana ko'plab kulfatlar solishi muqarrar. Shu bois, bugungi kunda suverenitetimizga tahdid solayotgan bunday hodisalarning mafkuraviy poydevorini hosil qiluvchi vayronkor g'oyalarni fosh etish birlamchi vazifaga aylanadi.

Hozirgi voqelikda milliy istiqlol g'oyasi va yot mafkuralar orasidagi munosabatlar mafkuraviy kurash, mafkuraviy qarshi turish, psixologik urush shakllarida kechmoqda. Yot mafkuralar mafkuraviy kurashlarning ming yillik uslublarini, shuningdek, zamonaviylashtirilgan uslublari: axborot maydonini egallab olish; mafkuraviy diversiya, siyosiy indoktrinatsiya, mafkuraviy infiltratsiya, dezoriyentatsiya, mafkuraviy qo'poruvchilik harakatlarini qo'llash orqali xalqimizda O'zbekistonning buyuk kelajagiga ishonchsizlik uyg'otishga davlat siyosatini obro'sizlantirishga, odamlarning o'zini Vatan, millat himoyasidan chetga tortishga, loqaydlikka erishishga intiladilar. Bu harakatlar mohiyati haqida Prezident Islom Karimov «Insoniyat tarixida diniy ongning ajralmas qismi bo'lgan odamlardagi e'tiqoddan faqat bunyodkor kuch sifatida emas, balki, buzg'unchi kuch, hatto, fanatizm (o'ta ketgan mutaassiblik) sifatida foydalanilganligini ko'rsatuvchi misollar ko'p. Aynan fanatizm illatiga yo'liqqan odamlar yoki ularning guruhlar jamiyatda beqarorlik to'lqinini keltirib chiqarishga qodir bo'ladilar»³⁸, - deya alohida ta'kidlaydi. Shuningdek, O'zbekistonning Markaziy Osiyodagi o'rnini hisobga olib, ular diniy oqimlar O'zbekistonda rivojlantirilsa, buning ta'siri tezda Markaziy Osiyoga yoyilishiga umid qiladilar. Chunki diniy allomalari ayni Movarounnahrda chiqqanligi bu o'lka xalqi milliy xarakteri, ma'naviyatining shakllanishiga sezilarli hissasini qo'shganligini biladilar. Shu asosda ular diniy niqob ostida yoshlarning mafkuraviy immunitetini susaytirib, ularga davlatimizning demokratik siyosati tamoyillarini qoralab, davlat va xalq o'rtasida ziddiyat keltirib chiqarishga umid qiladilar. Boshqacha qilib aytganda, yoshlarning mafkuraviy immunitetini susaytirish, yengish va o'zlarining soxta g'oyalarini singdirishni birinchi vazifa qilib oldilar. Yoshlarni g'oyaviy ta'sir ko'rsatish yo'li bilan o'z saflariga tortish masalasi vahhobiylar harakatida hamma vaqt ham asosiy o'rin olib keldi. Ularning qarashlariga ko'ra, yoshlarning bir marta o'qigan namozi keksalarning yetmish marta o'qigan namozidan foydaliroqdir. Islom esa o'z mohiyati jihatidan ijtimoiy hayotning ma'naviy asosi bo'lganligi sababli, yoshlar turli ijtimoiy-siyosiy g'oyalar va da'vatlarning, fan va texnika taraqqiyotining ta'siriga berilishi mumkin emas. XXI asrda ham g'oyaviy tortishuvlar to'xtamayapti. Shu bois xalqimizning ertangi mafkuraviy birligini ta'minlash g'oyaviy tarbiyaning izchil, doimiy asosga qo'yilishini taqozo etdi.

³⁸ Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr b'sag'asida: Xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –T.: O'zbekiston, 1997. 326 b. 37-b.

XULOSA

Xulosa o`rnida aytadigan bo`lsak, hozirgi kunda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanib borishi iqtisodiyot, ta`lim, fan hamda boshqa sohalarda faoliyat samaradorligini oshirishda muhim omil bo`lib xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, axborot texnologiyalarining rivoji jarayonida axborot xavfsizligini ta`minlash bilan bog`liq qonun hujjatlarini xalqaro standartlar, xorij tajribasi va milliy manfaatlarini hisobga olgan holda takomillashtirib borish lozim bo`ladi. O`zbekiston Respublikasining «Axborotlashtirish to`g`risida»gi qonuni (11.12.2003 yil) 19-moddasida ko`rsatilganidek, axborot resurslari va axborot tizimlarini muhofaza qilish avvalambor, shaxs, jamiyat va davlatning axborot xavfsizligini ta`minlash maqsadida amalga oshiriladi. Mazkur qonunning 20-moddasida: «Axborot resurslari va axborot tizimlari, agar ular bilan g`ayriqonuniy munosabatda bo`lish natijasida axborot resurslarining yoki axborot tizimlarining mulkdorlariga, egalariга yohud boshqa yuridik hamda jismoniy shaxslarga zarar yetkazilishi mumkin bo`lsa, muhofaza qilinishi kerak. Davlat organlari, yuridik va jismoniy shaxslar davlat sirlari hamda maxfiy sirlar to`g`risidagi axborotni o`z ichiga olgan axborot resurslari va axborot tizimlarining muhofaza qilinishini ta`minlashi shart», deb alohida ko`rsatilgan.

Xalqaro miqyosda o`tayotgan xalqaro anjumanlarda ham axborot xavfsizligini ta`minlash masalasiga alohida e`tibor berilmoqda. Jahon xalqaro tajribasi shuni ko`rsatmoqdaki, davlat miqyosida axborotlashtirishning milliy tizimini shakllantirish sohasidagi muammolar axborot resurslarini boshqarish, bu sohadagi aniq va ravshan strategiyani ishlab chiqish kabi vazifalardan tashqari, ushbu munosabatlarni tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlarini yaratish, zamon talablaridan kelib chiqib, ularni takomillashtirish kabi masalalar bugungi kunda dolzarb bo`lib turibdi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda har qanday davlatning axborot resurslari uning iqtisodiy va harbiy salohiyatini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Mazkur resurslardan samarali foydalanish mamlakat xavfsizligini va demokratik axborotlashgan jamiyatni muvaffaqiyatli shakllantirishini ta`minlaydi. Bunday jamiyatda axborot almashinuv tezligi yuksalib, axborotlarni yig`ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish bo`yicha ilg`or axborot-kommunikatsiyalar texnologiyalarini qo`llash keng ko`lamda amalga oshiriladi. Bugungi kunda axborotlashgan jamiyat jadal suratlar bilan shakllanib, axborotlar dunyosida davlat chegaralari degan tushuncha yo`qolib bormoqda. Global kompyuter tarmog`i jahon davlatlarining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma`naviy va madaniy hayotida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Shuning uchun axborotni muhofaza qilish har qanday mamlakatda muhim davlat vazifasi bo`lib hisoblanadi.

O‘zbekistonda axborotni muhofaza qilishning zaruriyati axborotni muhofaza qilishning davlat tizimini yaratilishida va axborot xavfsizligining huquqiy bazasini rivojlantirishda o‘z ifodasini topdi. Bu borada O‘zbekiston Respublikasining «Davlat sirlarini saqlash to‘g‘risida»gi, «Axborotlashtirish to‘g‘risida»gi va boshqa qonunlar qabul qilindi hamda amalda tatbiq etib kelinmoqda. Mamlakatimizda axborotlashtirish sohasidagi davlat siyosati axborot resurslari, axborot texnologiyalari va axborot tizimlarini rivojlantirish hamda takomillashtirishning zamonaviy jahon tamoyillarini hisobga olgan holda milliy axborot tizimini yaratishga qaratilgan³⁹ O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov bugungi kunda jamiyat taraqqiyotida axborot texnologiyalarining ahamiyatiga to‘xtalib, quyidagilarni ta’kidlagan: «Bugungi sharoitda, Internet va elektronika davrida iqtisodiyot tarmoqlarida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, «Elektron hukumat» tizimi faoliyatini yanada rivojlantirish ustuvor ahamiyatga egadir.

³⁹ Ўзбекистон Республикасининг «Ахборотлаштириш тўғрисида»ги қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси. – 2004. – №1 – 10-м.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

I.Rahbariy adabiyotlar;

1. Islom Karimov. Milliy istiqlol mafkurasi -xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir.Toshkent, «O‘zbekiston, 2000y, 23-24 betlar».
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T., Ma'naviyat, 2008. -115-bet.
3. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.6. - T.: «O‘zbekiston», 1997.
- 4.Karimov I.A. Jamiyat mafkurasi xalqni -xalq, millatni - millat qilishga xizmat etsin. T.7.- T.: «O‘zbekiston», 1999.
- 5.Karimov I.A. O‘zbekiston respublikasi Oliy Majlisining XI sessiyasida so‘zlagan nutqi. Xalq so‘zi. 1998 yil 5 may.
- 6.Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda. - T.: «O‘zbekiston», 2000;
- 7.Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot - pirovard maqsadimiz. T.8. -T.: «O‘zbekiston», 2000;
- 8.Karimov I.A. Egali yurt erkini bermas. T.9. - T.: «O‘zbekiston», 2001;
- 9.Karimov I.A. «Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» risolasiga so‘z boshi. T.9. - T.: «O‘zbekiston», 2001.
- 10.Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo‘lida. T.: 6. - T.: «O‘zbekiston», 1998, 240-241 – betlar
- 12.Karimov I.A. Inson, uning huquq va erkinliklari hamda manfaatlari – eng oliy qadriyat.//Xalq so‘zi, 2005 yil 8 dekabr.
- 13.Ўзбекистон Республикасининг Биринчи Президенти Ислон Каримовнинг мамлакатимизни 2015 йилда ижтимоий-иктисодий ривожлантириш яқунлари ва 2016 йилга мулжалланган шкисодий дастурининг энг мухим устувор йуналишларига багишланган Вазирлар Махкамасининг ахборотномаси.-2003.-№ 1.-2-м.
- 14..Каримов.И.А. Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чукирлаштириш ва фукаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси.- Т.,2010.
- 15.Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси.-2003.-№ 1.-2-м.
- 16.Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – 2015. – №5. – 52-м.
- 17.Ўзбекистон Республикасининг «Ахборот эркинлиги принциплари ва кафолатлари тўғрисида»ги 2002 йил 12 декабрь қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси. – 2003. – № 1.
- 18.Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг ахборотномаси. – 1993. – № 5 – 232-м.

19.«Ўзбекистон Республикасининг Ахборот технологиялари ва коммуникацияларини ивожлантириш вазирлиги ҳузуридаги «Электрон ҳукумат» тизимини ривожлантириш маркази ҳамда Ахборот хавфсизлигини таъминлаш маркази фаолиятини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Қарор // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – 2013. – №38 – 492-м.;2015. – №26. – 338-м.

20.Ўзбекистон Республикасининг «Ахборотлаштириш тўғрисида»ги қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси. – 2004. – №1 – 10-м.

II.Qo'shimch adabiyotlar:

1. Отумаротов С. Globalashuv va milliy-ma'naviy havfsizlik. T.2013
- 2.Жуманиёзов Х, Собирова М. Нигманова У. Глобаллашув асослари. Т.2015
3. «Алоқа ва ахборотлаштириш соҳасида ахборот хавфсизлиги: Атамалар ва таърифлар». Тармоқ стандарти: TSt 45-010:2010.
4. «Ахборот-коммуникация технологиялари изоҳли луғати (иккинчи нашри) – www/undp.uz, www.ictp.uz.
5. Abbosxo'jayev, Umarova N., Qo'chqorov R. Mafkura poligonlaridagi olishuv. – Toshkent, «Akademiya», 2007. 14-15-betlar.
- 6.Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – Toshkent, «O'zbekiston», 2000, 3-bet.
- 7.Abbosxo'jayev, Umarova N., Qo'chqorov R. Mafkura poligonlaridagi olishuv. – Toshkent, «Akademiya», 2007. 16-bet.
8. Abdullajonov O. «Diniy aqidaparastlikning kelib chiqishi, mohiyati va O'zbekistonga kirib kelishi». T., 2000.
9. Globalistika mejdunarodniy mejdistsiplinariy entsiklopedicheskiy slovar. Moskva-Sank-Piterburg-Nyu-York, 2006.
- 10.Jo'rayev N. Mafkuraviy immunitet. -T.: «Ma'naviyat», 2000. - 16 b.
- 11.Lafasov M. Ekstremizm, terrorizm tarixi va mohiyati. – T.: Iqtisod-Moliya, 2008.
- 12.Umarov B. Globalashuv ziddiyatlari: iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy jihatlari. T.: “Ma'naviyat”, 2006.
13. Xolbekov M. Adabiyotda globalashuv. – «Tafakkur», 2006 y.4-son
- Ochildiyev A. Globalashuv va mafkuraviy jarayonlar. - T.: «Muharrir», 2009.
- 14.Otamurotov S. Globalashuv va milliy- ma'naviy havfsizlik. T.2013.
- 15.Saidov U. Globalashuv va madaniyatlararo muloqot. –T.: “Akademiya”, 2008.
- 15.Terrorizm – taraqqiyot kushandasi. Toshkent, 2002.

III. Elektron ta'lim resurslari:

1. ww. tdpu. uz
2. www. Ziyonet. uz
3. www. edu. uz
4. www. ma'naviyat. uz
5. www. google.uz
6. www.gov.uz.
7. www/undp.uz.
8. www.ictp.uz.